16	Sayt tuzilmasini ishlab chiqish. Saytlarni mantiqiy bog'lash.	
Jami		32

Amaliy mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari

Pedagogik web dizaynning nazariy asoslari. Internet tarmog'i xizmatlarida ishlash. WWW axborot izlash tizimi bilan ishlash. Web texnologiyalar va ularning tasnifi. Web dizaynning uskunaviy vositalari bilan ishlash. Ta'limiy internet resurslar: sayt va portallar tuzilishi va tasnifi. Ta'limiy internet resurslarning asosiy xizmatlari. Ta'limiy web resursni pedagogik loyihalash. Ta'limiy internet resursning o'quv maqsadlarini, mazmunini va tuzilmasini pedagogik loyihalash.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Adabiyotlar: A1, A2, A3, Q4, Q5, Q6.

Ta'limiy internet resursni yaratish texnologiyasi.

HTML va unda web sahifa tayyorlash. Flash dasturing asosiy oynasi elementlari bilan ishlash. Flash texnologiyasi va unda web sahifa elementlarini tayyorlash. Flash dasturida interfaol animatsiyalar tayyorlash. Flash dasturida niqobli animatsiyalar yaratish. Flash dasturida ob'yektni trayektoriya bo'ylab harakatlantirish. Flash dasturining Actions tili bilan ishlash. Flash dasturida pedagogic dasturiy vositani loyihalash. Dreamweaver dasturining asosiy oynasi elementlari bilan ishlash. Dreamweaver dasturida web sahifa tayyorlash. Dreamweaver dasturida web sayt tayyorlash. Web sahifani internet tarmog'iga joylashtirish. Dreamweaver dasturida electron qo'llanmani loyihalash. Dreamweaver dasturida electron qo'llanmalar yaratish. Web saytlarni sinovdan o'tkazish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Adabiyotlar: A1, A2, A3, Q6, Q7, Q8, Q9, Q10.

«Pedagogik web dizayn» fani bo'yicha kalendar tematik reja

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Soat
1 kurs II semester		
	Pedagogik web dizaynning nazariy asoslari.	2
1	Internet tarmog'i xizmatlarida ishlash. WWW axborot izlash tizimi bilan ishlash.	2
2	Web texnologiyalar va ularning tasnifi. Web dizaynning uskunaviy vositalari bilan ishlash.	2
3	Ta'limiy internet resurslarning asosiy xizmatlari. Ta'limiy internet resurslar: sayt va portallar tuzilishi va tasnifi.	2
4	Ta'limiy internet resursning o'quv mazmunini va tuzilmasini pedagogik loyihalash.	2
	Ta'limiy internet resursni yaratish texnologiyasi.	

5	HTML va unda web sahifa tayyorlash.	2
6	Flash dasturing asosiy oynasi elementlari bilan ishlash. Flash texnologiyasi va unda web sahifa elementlarini tayyorlash.	2
7	Flah dasturida interfaol animatsiyalar tayyorlash. Flash dasturida niqobli animatsiyalar yaratish. Flash dasturida pedagogik dasturiy vositani loyihalash.	2
8	Flash dasturida ob'yektni trayektoriya bo'ylab harakatlantirish. Flash dasturining Actions tili bilan ishlash.	2
9	Dreamweaver dasturining asosiy oynasi elementlari bilan ishlash. Dreamweaver dasturida web sayt tayyorlash. Dreamweaver dasturida electron qo'llanmani loyihalash.	2
10	Web sahifani internet tarmog'iga joylashtirish. Web saytlarni sinovdan o'tkazish.	2
	Jami:	20

«Pedagogik web dizayn» fani bo'yicha kalendar tematik reja

№	Seminar mashg'ulotlar mavzulari	Soat
1 kurs II semestr		
	Pedagogik web dizaynning nazariy asoslari.	2
1	Internet tarmog'i xizmatlarida ishlash. WWW axborot izlash tizimi bilan ishlash.	2
2	Web texnologiyalar va ularning tasnifi. Web dizaynning uskunaviy vositalari bilan ishlash.	2
3	Ta'limiy internet resurslarning asosiy xizmatlari. Ta'limiy internet resurslar: sayt va portallar tuzilishi va tasnifi.	2
4	Ta'limiy internet resursning o'quv mazmunini va tuzilmasini pedagogik loyihalash.	2
	Ta'limiy internet resursni yaratish texnologiyasi.	
5	HTML va unda web sahifa tayyorlash.	2
6	Flash dasturing asosiy oynasi elementlari bilan ishlash. Flash texnologiyasi va unda web sahifa elementlarini tayyorlash.	2
7	Flah dasturida interfaol animatsiyalar tayyorlash. Flash dasturida niqobli animatsiyalar yaratish. Flash dasturida pedagogik dasturiy vositani loyihalash.	2
8	Flash dasturida ob'yektni trayektoriya bo'ylab harakatlantirish. Flash dasturining Actions tili bilan ishlash.	2

9	Dreamweaver dasturining asosiy oynasi elementlari bilan ishlash. Dreamweaver dasturida web sayt tayyorlash. Dreamweaver dasturida electron qo'llanmani loyihalash.	2
10	Web sahifani internet tarmog'iga joylashtirish. Web saytlarni sinovdan o'tkazish.	2
	Jami:	20

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

«Pedagogik web dizayn» fani bo'yicha talabanning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismidir.

Talabalar ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib, referatlar tayyorlaydilar va mashg'ulot rejasi bo'yicha quyilgan masala yechimini modellashtirish, algoritmlarini tuzish va dasturiy vositalarini qo'llash bilan bog'liq savollarni yoritadigan loyihalar tayyorlashadi.

Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi. Buning uchun berilgan vazifalarni tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Konspektlarni va mavzularni o'zlashtirish darajasini baholash esa, ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan bajariladi.

«Pedagogik web dizayn» fani bo'yicha mustaqil ish majmuasi barcha mavzularni qamrab olgan va quyidagi mavzular ko'rinishida shakllantiriladi.

Mustaqil ta'limning mazmuni va hajmi

№	Mustaqil mashg'ulot mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Hajmi, soat
1 kurs 1 semestr				
1.	Pedagogik web dizaynning nazariy asoslari.	Internet tarmog'i xizmatlarida ishlash. WWW axborot izlash tizimi bilan ishlash. Web texnologiyalar va ularning tasnifi. Web dizaynning uskunaviy vositalari bilan ishlash.	1-3 xaftalar	8
2.	Ta'limiy internet resurslari	Ta'limiy internet resurslarning asosiy xizmatlari. Ta'limiy web resursni pedagogik loyihalash. Ta'limiy internet resursning o'quv maqsadlarini, mazmunini va tuzilmasini pedagogik loyihalash.	4-6 xaftalar	8
3.	Ta'limiy internet resursni yaratish texnologiyasi.	HTML va unda web sahifa tayyorlash. Flash dasturining asosiy oynasi elementlari bilan ishlash. Flash texnologiyasi va unda	7-10 xaftalar	10

		web sahifa elementlarini tayyorlash. Flash dasturida interfaol animatsiyalar tayyorlash. Flash dasturida niqobli animatsiyalar yaratish.		
4	Dreamweaver dasturi	Dreamweaver dasturining asosiy oynasi elementlari bilan ishlash. Dreamweaver dasturida web sahifa tayyorlash. Dreamweaver dasturida web sayt tayyorlash.	11-13 xaftalar	14
5	Dreamweaver dasturida electron qo'llanma	Dreamweaver dasturida electron qo'llanmani loyihalash. Dreamweaver dasturida electron qo'llanmalar yaratish. Web saytlarni sinovdan o'tkazish.	13-16 xaftalar	12
	Jami			52

Dasturning informasion uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot, pedagogik va kommunikasion texnologiyalarni qo'llash nazarda tutilgan. Bularning asosini zamonaviy kompyuterlar, bilim berish dasturiy vositalari, prezentasiya, vizual laboratoriya, elektron didaktik texnologiyalar tashkil qiladi.

Fanning uslubiy asoslari sifatida amaliy mashg'ulotlarida aqliy xujum, guruhli fikrlash, "ish uyini" tashkil qilish va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi.

«Pedagogik web dizayn» fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezonlari

Fan bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni, hamda xar bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning bilim, ko'nikma va malaka darajalari

100 ballik shkala bilan o'lchanadi.

Miqdoriy ko'rsatkich	Sifat ko'rsatkich
86 -100 ball	«a'lo»
71-85 ball	«yaxshi»
55- 70 ball	«qoniqarli»
47 – 54 ball	«qoniqarsiz»
0 – 46 ball	«yomon»

Nazoratlar turlari, soni va shakli

№	Nazorat turi	Soni	Nazorat shakli	Maksimal ball	Saralash ball	O'tkazish vaqti
	J.N.	2	Og'zaki, yozma, test.	35	JN+ON=39	Jadval
	O.N.	2	Og'zaki, yozma, test.	35		bo'yicha
	Ya.N.	1	yo'zma, og'zaki, test.	30		

Og'zaki va yozma nazorat natijalarini baholash mezonlari

«A'lo» baho (86, 100) ball qo'yiladi:

1. Tushuncha va ta'riflar to'liq va aniq keltirilsa.
2. Tasdiqlar to'g'ri va aniq bayon qilinib, to'liq isboti keltirilsa.
3. Tasdiqlarning aniqligi unga mos misollar orqali asoslansa va ularning isbotlash usullarini boshqa masalalarga qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lsa.

4. Amaliy topshiriqlar (misol yoki masala) algoritm bo'yicha asoslanib, to'liq va to'g'ri yechilgan bo'lsa.
5. Tushuncha va tasdiqlarning geometrik talqini to'g'ri va to'liq keltirilgan bo'lsa.
6. Barcha javoblarda (bayonlar) mustaqil fikrlab bajarilgan bo'lsa.

«Yaxshi» baho (71, 85) ball qo'yiladi:

1. Tushuncha va ta'riflar to'liq va aniq keltirilsa, ammo bayonda javobning asosiy mazmunini buzmaydigan ba'zi yetishmovchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa.
2. Masalaning asosiy mazmunini yoritishda bitta-ikkita kamchilikka yo'l qo'yilgan bo'lib, imtihon oluvchi ko'rsatgan bu xato-kamchiliklarni osongina tuzatish mumkin bo'lsa,
3. Tasdiqlar (xossa, lemma, teorema, formulalar) to'g'ri keltirilib lekin isbotida ayrim kamchiliklar bo'lsa,
4. Tasdiqlar (xossa, lemma, teorema, formulalar) ning muhim shartlarini asoslovchi misollarni mustaqil keltira olmasa,
5. Tasdiqlar (xossa, lemma, teorema) ning isbotlash usullarini boshqa misollarga qo'llay olish ko'nikmasiga yetarli darajada ega bo'lmasa.

«Qonikarli» baho (55, 70) ball qo'yiladi:

Kafedra tomonidan davlat ta'lim standartlariga mos fan bo'yicha modullar uchun ishlab chiqilgan minimal talablarni bajarsa.

1. Tushuncha va ta'riflar keltirilsa.
2. Tasdiqlarning bayoni to'g'ri keltirilsa (isbotsiz)
3. Amaliy topshiriqlar kamchiliklar bilan bajarilgan bo'lsa.
4. Standart formulalar, jadvallar, koidalar, algoritmlar o'zlashtirilgan bo'lsa

«Qonikarsiz» baho (47, 54) ball qo'yiladi:

Kafedra tomonidan ishlab chikilgan «minimal talablar»ni bajara olmasa.

«Yomon» baho, (0, 46) ball qo'yiladi:

Boshlang'ich nazorat (elementar matematikadan)natijasi 100 ballik shkalada 55 balldan past bo'lsa.

Bilim, ko'nikma va malaka darajalarini o'lchash

bo'yicha umumiy tavsiyalar

1. Nazorat uchun ajratilgan maksimal ballni topshiriqlar soniga bo'lib, har bir topshiriq uchun maksimal ballni aniqlash.
2. Eng yaxshi bajarilgan ishni namuna (etalon) sifatida tanlab olish.
3. O'lchov birligini shartli ravishda aniqlab olish.
4. Ko'chirmachilik va o'zaro yordam kabi subyektiv holatlarni e'tiborga olish.
5. Baholash jarayonida nisbiylik prinsipiga amal qilish.
6. Baholash jarayonida obyektivlik prinsipiga amal qilish.
7. Tushunchalarni ta'rifi bo'yicha aniqlay olish darajasini tekshirish.
8. Tasdiqlar shartlarining bajarilishini tekshira olish darajasini aniqlash.
9. Tasdiqlarni inkorlovchi (rad etuvchi) misollar keltira olishini tekshirish.
10. O'zlashtirilgan BKMLarni takroriy baholashlarga yo'l qo'ymaslik.
11. Miqdoriy ko'rsatgichlarning chegaraviy ballarini (38,40, 54, 56, 70, 71, 85, 86) aniqroq o'lchashga harakat qilish.

YaN uchun ajratilgan maksimal ballning taqsimlanishi: (maks 30)

№	Yakuniy yozma ish yoki og'zaki so'rov	30
1	Nazariy savol- 1	5
2	Nazariy savol -2	5
3	3-misol	5
4	4-misol	5
5	Mustaqil ishdan	5

Joriy nazorat maksimal bali(35)ning ko'rsatkichlarga taqsimlanishi

	Ko'rsatkichlar	1 - JN(35)
I	Faolligi (dars jarayonidagi ishtiroki, uy vazifasi, amaliyot daftarining yuritilishi)	(0 - 7)
II	Mustaqil ish	(0 – 7)
III	Yozma ish(test),og'zaki so'rov, laboratoriya ishi	(0 - 7)

Oraliq nazorat maksimal bali(35)ning ko'rsatkichlarga taqsimlanishi

	Ko'rsatkichlar	1- ON(max35)
I	Faolligi (dars jarayoniga ishtiroki, maruza daftarining yuritilishi)	(0 - 9)
II	Mustaqil ish	(0 - 6)
III	Yozma ish(test,suhbat)	(0-20)

Izoh: Laboratoriya ishlariga 3-ko'rsatkich hisobidan, mustaqil ijodiy ishlarga esa 2-ko'rsatkich hisobidan ball ajratiladi.

Birinchi kursatkichlar buyicha: 1-juftlik darsga ajratilgan maksimal ball quyidagi formulalar bo'yicha aniqlanadi:

ON uchun $8 : 40$ (juftliklar soni)=0.2, JN uchun $14 : 80$ (juftliklar soni)=0.175.

Uchinchi ko'rsatkichlar buyicha: Yozma ishlar(test)va suhbat bir necha marta o'tkazilishi mumkin, lekin natijalarning o'rtachasi gurux jurnaliga qayd etiladi. Bu ko'rsatkichlar asosiy va hal qiluvchidir.

Faqat birinchi va ikkinchi kursatkichlari buyicha talaba JN va ON dan maksimal 36 ball to'plashi mumkin, ammo YaN ga qo'yilmaydi.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari jn va on lar uchun umumiy bo'lib, natijalari amaliy va nazariy jihatdan alohida-alohida belgilangan sanalarga qayd etiladi.

Qayta topshirishlar navbatdagi nazorat turini topshirish muddatigacha amalga oshirilishi mumkin, natijalari **qayta** ustuniga qayd etiladi.

Barcha nazoratlarning natijalari kafedraga yozma(elektron usulda) takdim etilishi va kafedra yig'ilishida taxlil etilishi shart. Yuqori va past o'zlashtirish ko'rsatgan talabalar kafedra mudiri va dekan tomonidan alohida nazoratga olinadi.

GURUH JURNALIGA rasmiylashtirish tartibi

Jurnalda *amaliyot darslari* uchun **bitta sanani bir nechta ustunlarga ketma-ket yozib**, ustunlarni *faolligi, yozma ish(test), og'zaki, mustaqil ish* va *qayta* deb nomlab, natijalarni qayd etish mumkin. Fakat *faollik* ustuni hamma talaba uchun **har darsda yoki har uch darsda bir marta** to'ldiriladi, *yo'zma ish* ustuniga yozma ish (kam topshirikli) yoki test natijalari rejalashtirilgan sanaga qayd etiladi, *og'zaki* va uy vazifasi ustuniga navbat buyicha 5-6 ta talaba bilan shu sanada utkazilgan og'zaki so'rov natijalari qayd etiladi. *Mustakil ish* ustuniga *joriy* (oralik)*nazorat davriida* bajarilishi kerak bulgan mustakil ishni topshirganlargagina tegishli ballar kayd etiladi. Kayta topshirish natijalari *kayta* ustunga kayd etiladi. Xar bir dars uchun 5 tadan ustunlar ajratish shart emas. Chunki xar darsda yozma ish yoki mustakil ishlarni baxolamasligimiz mumkin. O'qituvchi joriy va oraliq nazoratlar muddatlarini albatta e'lon qilishi kerak. Bitta sana 2 ta ustunga yoki yozma ish, mustakil ish natijalari ham qayd etilishi rejalashtirilgan kunlargagina 3 ta ustunga yozilishi mumkin. Bunday sanalar birinchi joriy nazorat davrida ikkita yoki uchta bo'ladi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. M.Aripov, B.Begalov va boshqalar. Axborot texnologiyalari. "Noshir", Toshkent. 2009 y.
2. M.Aripov, M.Muhammadiyev. Informatika, information texnologiyalar. Darslik, TDYuI, Toshkent, 2005 y.
3. Ralph M. Stair, George W. Reynolds. Fundamentals of Information Systems. Sixth edition. Course Technology, Cengage Learning. USA. 2012. 508-p.
4. G'ulomov S.S., Alimov R.X. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. –T.: Sharq nashriyoti, 2000 y.
5. K.K.Kolin. Sotsialnaya informatika. "Fond-mir", Moskva, 2003 y.
6. R.Xamdorov va boshqalar. Ta'limda axborot texnologiyalari. Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2010y.
7. U.Yuldashev, M.Mamarajabov, S.Tursunov. Pedagogik Web dizayn. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Voriz", 2013y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Abduqodirov A., Xaitov A., Shodiyev R. Axborot texnologiyalari Akademik lisey va kasb – hunar kolledjlar uchun darslik. – T.: O'zbekiston, 2001 y

2. Kosimov S.S Axborot texnologiyalari. Texnika oliy urta yurtlari bakalavriat boskichi talabarlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. Toshkent. "Alokachi" nashriyoti 2006 y.
3. Норенков И.Р., Зимин А.М. Информационные технологии в образовании. Учебное пособие. - М.: Изд-во. МГТУ им. Баумана.
4. Mingbayev N.S., Jumanov I.I. Kompyuter texnologiyalari- Samarqand,: SamDU nashri, 2004, 152 bet.
5. Jumanov I.I., Mingboyev N.S. Axborot texnologiyalari (1-qism: axborot texnologiyalarining qurilmaviy va dasturiy ta'minoti), Samarqand,: SamDU nashri, 2005, 148 bet.
6. Jumanov I.I., Mingboyev N.S. Axborot texnologiyalari (2-qism: axborot texnologiyalarining informasion ta'minoti): SamDU, 2005, 70 bet.
7. A.R.Axatov, O.Bobomurodov. Obrabotka informasii v sistemax priobreteniya znaniy//Izdatelstvo «FAN» AN RUz, Tashkent, 2009, 136 s.
8. Axatov A.R., Verlan A.F., Chmyr I.A., Bobomurodov O.J. Intellekturnyye sistemy. Metodicheskoye posobiye. – Samarkand: Izdatelstvo SamGU, 2009, -121 str.
9. O.I.Djumanov, X.Bustonov. Informatika va dasturlash asoslari - Uquv-uslubiy kursatma, SamDU nashri, 2009, 100 bet
10. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekison Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.-56b.
11. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiyjavobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104b

Internet va Ziyonet saytlari

12. www.pedagog.uz
13. www.Ziyonet.uz
14. www.yedu.uz
15. www.ss.info.ru

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
AMALIY MATEMATIKA VA INFORMATIKA FAKULTETI

«Axborotlashtirish texnologiyalari» kafedrası
 «Pedagogik web dizayn» fani bo'yicha reyting nazoratlari

GRAFIGI

Mutaxassilik: Ta'limda axborot texnologiyalari (1-kurs magistratura)

Umumiy o'quv soati - 152, shundan ma'ruza - 32 soat, amaliyot - 20 soat, Seminar - 20 mustaqil ish – 52 soat

2019-2020 o'quv yili (1 kurs 2-semestr)

Ishchi o'quv dasturidagi mavzular tartib raqami	Umumiy soat					Bakolash turi	Nazorat shakli	Ball		Muddat i (xaf ta)
	Ma'ruza	Amal.mashg'ulot	Seminar	Mustaqil ish	Jami			Maks. ball	Saral. ball	
						Jami		100	55	
1-modul (2 semestr)										
1-16	32	20	20	52	124	1-JB	Kundalik nazorat, nazorat va laboratoriya ishi, uy ishi	35		Ma y, 3-xaft a
Qo'shimcha mavzu bo'yicha referat						1-MB	Himoya			
						1-OB	Yozma nazorat	35		Ma y, 4-xaft a

Jami	32	20	20	52	124			70	39	
						YaB	Yozma	30		Iyun, jadval bo'yicha
						Jami		100	55	

SamDU AMALIY MATEMATIKA VA INFORMATIKA FAKULTETI

«Axborotlashtirish texnologiyalari» kafedrasida

« Pedagogik Web-dizayn fanidan» fani bo'yicha reyting nazoratlari

GRAFIGI

Ta'lim yo'nalishi: Talimda axborot texnologiyalari (1-kur magistratura)

Umumiy o'quv soati - 124, shundan ma'ruza – 32 soat, amaliyot - 20, seminar-20 soat. mustaqil ish - 52 soat.

2019-2020 o'quv yili I-semestr

	Umumiy soat	Ball	
--	-------------	------	--

Ishchi o'quv dasturidagi mavzular tartib raqami	Ma'ruza	Amal.mashg'u lot	Labarotoriya	Mustaqil ish	Jami		Nazorat shakli	Maks. ball	Saral. ball	Muddati (hafta)
1-10	18	20	8	20	66	1-JB	Nazorat ishi, davomat, uy ishi, laboratoriya ishi	35		aprel 3-hafta
						1-OB	Yozma nazorat	35		aprel 3-hafta
Jami	18	20	8	20	66	JB		35		
						OB		35		
						JAM I		70	39	
						YaN	Yozma ish	30		jadval asosida
						Jami		100	55	

Ta'lim texnologiyasi

Nazorat materiallari

«PEDAGOGIK WEB DIZAYN» FANI BUYICHA ORALIQ VA YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI.

1. Web dasturlash fani tushunchasi.
2. Teg tushunchasi va ishlatilishi.
3. Web dasturlash strukturasi.
4. Web dasturlash strukturasiidagi asosiy teglarning ishlatilishi.
5. Gipermatnlarni uzatish protokoli.
6. HTTP sxemasiga asosan axborot resurslariga kirish protokoli.
7. Gipermatnli bog'lanish tushunchasi.
8. Gipermatnli ko'rsatkichlar.
9. <HEAD> tegining elementlari va ishlatilishi.
10. Sarlavxa elementlari.
11. Ko'rinishni xosil qilish tegi va atributlarining ishlatilishi.
12. , , , <DL> teglarining ishlatilishi va vazifalari.
13. <META> tegining elementlari va ishlatilishi.
14. HTML xujjatini formatlash.
15. Xujjatni formatlashda ishlatiladigan teglar.
16. Xujjatni formatlash teglarining atributlari va ishlatilishi.
17. Matnda satrlar soni aniqlash va teglarning ishlatilishi.
18. HTML da ruyxatlarni yaratish.
19. Tartibga olinmagan ruyxatlar.
20. Tartibga olingan ruyxatlar.
21. Tartiblanmagan ruyxatda marker atributlarini ishlatilishi.
22. Ruyxatda terminlarni aniqlash teglari va ularning ishlatilishi.
23. HTML da grafiklar.
24. Ko'rinishni xosil qilish tegi va atributlarining ishlatilishi.
25. USEMAP atributining ishlatilishi.
26. HTML da jadvallar xosil qilish.
27. HTML da jadval xosil qilish teglari va ularning atributlari.
28. HTML da forma yaratish teglari va ularning atributlari.
29. Freym tushunchasi.
30. Freymlar yaratilishida ishlatiladigan teglar va ularning atributlari.
31. JavaScript tushunchasi va HTML da ishlatilishi.
32. JavaScript ning asosiy elementlari.
33. Java tilining asosiy xarakteristikalar.
34. JavaScript da nomlash qoidalari.
35. Teg tushunchasi va ishlatilishi.
36. Matnda satrlar soni aniqlash va teglarning ishlatilishi.
37. Freym tushunchasi.
38. Satrni gorizontal freym'larga bo'lish dasturini tuzing.
39. JavaScript tushunchasi va HTML da ishlatilishi.
40. HTML da forma yaratish teglari va ularning atributlari.

**«PEDAGOGIK WEB DIZAYN» FANI BUYICHA ORALIQ VA YAKUNIY
NAZORAT VARIANTLARI(BILETLAR).**

Oraliq nazorat variantlari

Variant № 1

- 1.Web dasturlash fani tushunchasi.
- 2.Teg tushunchasi va ishlatilishi.
- 3.Gipermatnlarni uzatish protokoli.

Variant № 2

- 1.Gipermatnli bog'lanish tushunchasi.
2. Web dasturlash strukturasi.
3. Web dasturlash strukturasiidagi asosiy teglarning ishlatilishi.

Variant № 3

- 1.<HEAD> tegining elementlari va ishlatilishi.
2. <META> tegining elementlari va ishlatilishi.
- 3.HTML xujjatini formatlash.

Variant № 4

- 1.Xujjatni formatlashda ishlatiladigan teglar.
- 2.Xujjatni formatlash teglarining atributlari va ishlatilishi.
- 3.Sarlavxa elementlari.

Variant № 5

- 1.HTML da ruyxatlarni yaratish.
- 2.Tartibga olinmagan ruyxatlar.
- 3.Tartibga olingan ruyxatlar.

Variant № 6

- 1.Tartiblanmagan ruyxatda marker atributlarini ishlatilishi.
- 2., , , <DL> teglarining ishlatilishi va vazifalari.
- 3.Ruyxatda terminlarni aniqlash teglari va ularning ishlatilishi.

Variant № 7

- 1.Gipermatnli ko'rsatkichlar.
- 2.HTML da grafiklar.
- 3.HTTP sxemasiga asosan axborot resurslariga kirish protokoli.

Variant № 8

- 1.Ko'rinishni xosil qilish tegi va atributlarining ishlatilishi.
- 2.USEMAP atributining ishlatilishi.
- 3.HTML da jadvallar xosil qilish.

Variant № 9

- 1.HTML da jadval xosil qilish teglari va ularning atributlari.
- 2.HTML da forma yaratish teglari va ularning atributlari.
- 3.Matnda satrlar soni aniqlash va teglarning ishlatilishi.

Variant № 10

- 1.Freym tushunchasi.
- 2.Freymlar yaratilishida ishlatiladigan teglar va ularning atributlari.
- 3.Tartibga olinmagan ruyxatlar.

Variant № 11

- 1.JavaScript tushunchasi va HTML da ishlatilishi.
2. JavaScript ning asosiy elementlari.
3. Web dasturlash strukturasi asosiy teglarning ishlatilishi.

Variant № 12

- 1.Java tilining asosiy xarakteristikalarini.
- 2.JavaScript da nomlash qoidalari.
3. Ko'rinishni xosil qilish tegi va atributlarining ishlatilishi.

Variant № 13

- 1.Web dasturlash fani tushunchasi.
- 2.Gipermatnli bog'lanish tushunchasi.
- 3.<HEAD> tegining elementlari va ishlatilishi.

Variant № 14

1. Xujjatni formatlashda ishlatiladigan teglar.
2. HTML da ruyxatlarni yaratish.
3. Tartiblanmagan ruyxatda marker atributlarini ishlatilishi.

Variant № 15

1. HTML da jadval xosil qilish teglari va ularning atributlari.
2. Freym tushunchasi.
3. JavaScript tushunchasi va HTML da ishlatilishi.

Variant № 15

1. Java tilining asosiy xarakteristikalarini.
2. Web dasturlash fani tushunchasi.
3. Teg tushunchasi va ishlatilishi.

Variant № 16

1. Web dasturlash strukturasi.
2. <META> tegining elementlari va ishlatilishi.
3. Xujjatni formatlash teglarining atributlari va ishlatilishi.

Variant № 17

1. Tartibga olinmagan ruyxatlar.
2. , , , <DL> teglarining ishlatilishi va vazifalari.
3. HTML da grafiklar.

Variant № 18

1. Gipermatnlarni uzatish protokoli.
2. Web dasturlash strukturasiidagi asosiy teglarning ishlatilishi.
3. Sarlavxa elementlari.

Variant № 19

1. Ruyxatda terminlarni aniqlash teglari va ularning ishlatilishi.
2. Tartibga olingan ruyxatlar.
3. HTTP sxemasiga asosan axborot resurslariga kirish protokoli.

Variant № 20

1. HTML da jadvallar xosil qilish.
2. Matnda satrlar soni aniqlash va teglarning ishlatilishi.
3. Freym tushunchasi.

Variant № 21

1. Web dasturlash strukturasiidagi asosiy teglarning ishlatilishi.
2. JavaScript tushunchasi va HTML da ishlatilishi.
3. HTML da forma yaratish teglari va ularning atributlari.

Yakuniy nazorat biletleri

Variant № 1

- 1.Web dasturlash fani tushunchasi.
- 2.Teg tushunchasi va ishlatilishi.
- 3.Gipermatnlarni uzatish protokoli.
- 4.Sodda Web saxifa yaratish dasturini tuzing.

Variant № 2

- 1.Gipermatnli bog'lanish tushunchasi.
2. Web dasturlash strukturasi.
3. Web dasturlash strukturasiidagi asosiy teglarning ishlatilishi.
- 4.Sodda Web saxifada ranglarni ishlatib dastur tuzing.

Variant № 3

- 1.<HEAD> tegining elementlari va ishlatilishi.
2. <META> tegining elementlari va ishlatilishi.
- 3.HTML xujjatini formatlash.
4. <META> tegi ishlatilgan xolda dastur tuzing.

Variant № 4

- 1.Xujjatni formatlashda ishlatiladigan teglar.
- 2.Xujjatni formatlash teglarining atributlari va ishlatilishi.
- 3.Sarlavxa elementlari.
- 4.Xujjatda formatlash elementlarini ishlatgan xolda dastur tuzing.

Variant № 5

- 1.HTML da ruyxatlarni yaratish.
- 2.Tartibga olinmagan ruyxatlar.
- 3.Tartibga olingan ruyxatlar.
- 4.Xujjatda ruyxat yaratish elementlarini ishlatgan xolda dastur tuzing.

Variant № 6

- 1.Tartiblanmagan ruyxatda marker atributlarini ishlatilishi.
- 2., , , <DL> teglarining ishlatilishi va vazifalari.
- 3.Ruyxatda terminlarni aniqlash teglari va ularning ishlatilishi.
- 4., , <DL> teglarini ishlatgan xolda dastur tuzing.

Variant № 7

- 1.Gipermatnli ko'rsatkichlar.
- 2.HTML da grafiklar.
- 3.HTTP sxemasiga asosan axborot resurslariga kirish protokoli.
- 4.HTML da biror ko'rinishni (rasm) joylashtirib dastur tuzing.

Variant № 8

- 1.Ko'rinishni xosil qilish tegi va atributlarining ishlatilishi.
- 2.USEMAP atributining ishlatilishi.
- 3.HTML da jadvallar xosil qilish.
- 4.NTML da 5 ustunli jadval yarating.

Variant № 9

- 1.HTML da jadval xosil qilish teglari va ularning atributlari.
- 2.HTML da forma yaratish teglari va ularning atributlari.
- 3.Matnda satrlar soni aniqlash va teglarning ishlatilishi.
- 4.Saxifada jadval yaratib ustunlarini ranglarga bo'yash dasturini tuzing.

Variant № 10

- 1.Freym tushunchasi.
- 2.Freymlar yaratilishida ishlatiladigan teglar va ularning atributlari.
- 3.Tartibga olinmagan ruyxatlar.
- 4.Bir freymli dastur tuzing.

Variant № 11

- 1.JavaScript tushunchasi va HTML da ishlatilishi.
2. JavaScript ning asosiy elementlari.
3. Web dasturlash strukturasiidagi asosiy teglarning ishlatilishi.
4. Xujjatda formatlash elementlarini ishlatgan xolda dastur tuzing.

Variant № 12

- 1.Java tilining asosiy xarakteristikalar.
- 2.JavaScript da nomlash qoidalari.
3. Ko'rinishni xosil qilish tegi va atributlarining ishlatilishi.
- 4.Satrn gorizontal freymlarga bo'lish dasturini tuzing..

Variant № 13

- 1.Web dasturlash fani tushunchasi.
- 2.Gipermatnli bog'lanish tushunchasi.
- 3.<HEAD> tegining elementlari va ishlatilishi.
- 4.Satrn vertikal freymlarga bo'lish dasturini tuzing.

Variant № 14

1. Xujjatni formatlashda ishlatiladigan teglar.
2. HTML da ruyxatlarni yaratish.
3. Tartiblanmagan ruyxatda marker atributlarini ishlatilishi.
4. Sodda Web saxifa yaratish dasturini tuzing.

Variant № 15

1. HTML da jadval xosil qilish teglari va ularning atributlari.
2. Freym tushunchasi.
3. JavaScript tushunchasi va HTML da ishlatilishi.
4. HTML da biror ko'rinishni (rasm) joylashtirib dastur tuzing.

Variant № 16

1. Java tilining asosiy xarakteristikalarini.
2. Web dasturlash fani tushunchasi.
3. Teg tushunchasi va ishlatilishi.
4. , , <DL> teglarini ishlatgan xolda dastur tuzing.

Variant № 17

1. Web dasturlash strukturasi.
2. <META> tegining elementlari va ishlatilishi.
3. Xujjatni formatlash teglarining atributlari va ishlatilishi.
4. <META> tegi ishlatilgan xolda dastur tuzing.

Variant № 18

1. Tartibga olinmagan ruyxatlar.
2. , , , <DL> teglarining ishlatilishi va vazifalari.
3. HTML da grafiklar.
4. Xujjatda ruyxat yaratish elementlarini ishlatgan xolda dastur tuzing.

Variant № 19

1. HTML da forma yaratish teglari va ularning atributlari.
2. Freymlar yaratilishida ishlatiladigan teglar va ularning atributlari.
3. JavaScript ning asosiy elementlari.
4. Saxifa yaratishda JavaScript ni qo'llab dastur tuzing.

Variant № 20

1. Gipermatnlarni uzatish protokoli.
2. Web dasturlash strukturasiidagi asosiy teglarning ishlatilishi.
3. Sarlavxa elementlari.
4. Saxifada jadval yaratib ustunlarini ranglarga bo'yash dasturini tuzing.

Variant № 21

1. Ruyxatda terminlarni aniqlash teglari va ularning ishlatilishi.
2. Tartibga olingan ruyxatlar.
- 3.3. HTTP sxemasiga asosan axborot resurslariga kirish protokoli.
4. NTML da 9 ustunli jadval yarating.

Variant № 22

1. HTML da jadvallar xosil qilish.
2. Matnda satrlar soni aniqlash va teglarning ishlatilishi.
3. Freym tushunchasi.
4. Satrni gorizontaal freymlarga bo'lish dasturini tuzing.

Variant № 23

1. Web dasturlash strukturasiidagi asosiy teglarning ishlatilishi.
2. JavaScript tushunchasi va HTML da ishlatilishi.
3. HTML da forma yaratish teglari va ularning atributlari.
4. Satrni vertikal freymlarga bo'lish dasturini tuzing.

O'quv materiallari
Ma'ruza matni
Mavzu 1. **Pedagogik WEB - dizayn FANIGA KIRISH**
KOMPYuTER TARMOQLARI

Ma'ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Pedagogik Web dizayn.

O'quv soatii: 4 soat (ma'ruza);

O'quv mashg'ulotlari turi: ma'ruza; yangi mashg'ulotlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma'ruza rejasi:

1. Kompyuter tarmoqlari tarixi.
2. Internet global kompyuter tarmog'i.
3. Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi axborot va moliyaviy telekommunikasiya tarmoqlari.
4. Internetda informasion xavfsizlik.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

talabalarga kompyuter tarmog'i tushunchasi, internet tushunchasi, internet global kompyuter tarmog'i, telekommunikasiya tarmoqlari, internetda informasion xavfsizlik

tushunchasi xaqida ma'lumot berish

O'quv mashg'ulotining vazifalari:

O'quv mashg'ulotining vazifalari:

- *O'rgatuvchi:* talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich yesda qoldirish va anglash; terminlar, iboralarni xarakterlovchi elementlar; talabalarning firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish;
- *rivojlantiruvchi:* kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;

Tarbiyalovchi: aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma'ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakllari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma'ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blis-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya yetiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma'ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma'ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma'ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xarakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta'riflarini beradi,
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralar bilan ishlay olishligi;

• 1.2. Ma'ruzaning xronologik xaritasi

• 1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma'ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma'ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini yeslashga chorlaydi; ma'ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif yetadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif yetadi;

birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);

- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi; har bir kalit ibora va terminlarni yeshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blis-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning ye'tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me'zonlari;
- *Talabalar faoliyati*: ishning tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma'ruza rejasi:

- 1.Kompyuter tarmoqlari tarixi.
- 2.Internet global kompyuter tarmog'i.
- 3.Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi axborot va moliyaviy telekommunikasiya tarmoqlari.
- 4.Internetda informasion xavfsizlik.

1.3.1. Ma'ruza matni

Kalit so'zlar: Tarmoqlar, WEB texnologiyalari, global kompyuter tarmog'i, internet, elektron pochta, gipermatn, teleport, informasion xavfsizlik, elektron manzil.

Kompyuter tarmoqlari tarixi.

Dunyoda ko'plab kompyuter tarmoqlari (KT) ishlab turibdi. Bulardan ba'zilar bilan tanishamiz. 1957 yil **ARPA** (Advanced Research Projects Agency) tashkiloti tuzildi. 1960 - yillar oxirida **DARPA** (Defense Advanced Research Projects Agency), 1969 yilda (AQShning Mudofaa ministrligi tomonidan tashkil qilingan eng eski KTLari hisoblanadi) **ARPANet** (Advanced Research Projects

Agency Network) tajriba tarmog'ini tashkil etish haqida qaror qabul qildi. Ilk bor TARMOQ 1972 yilda namoyish etildi. U 40 ta kompyuterdan iborat bo'lib, asosiy tuzilish prinsipi TARMOQdagi barcha kompyuterlarning teng xuquqli bo'lishi edi. 1975 yil **ARPANet** tajriba tarmog'i maqomini harakatdagi (amaliy) TARMOQ maqomiga o'zgartirdi (1989 yil – **ARPANet** mustaqil TARMOQ sifatida tugatildi). Uning afzalligi – tarkibida turli turdagi kompyuterlar bor TARMOQ bilan ishlash qobiliyatiga egaligidir. U keyinchalik boshqa KTLari bilan birlashtirilib, **Internet**ning qismi sifatida ishlatila boshlandi. Xozirda u **MILNET** – Military NET (xarbiy TARMOQ), **CSNET** – (Computer Science NETWORK) (kompyuter ilmi tarmog'i), **NSFNET** – (National Science Foundation NETWORK) (milliy fan fondi tarmog'i) tarmoqlar sifatida **Internet**da ishlatiladi.

BITNET (1981) – Because it's Time Network (bugungi kun tarmog'i) KT Nyu-York va Yel universitetlari tomonidan ishlab chiqilgan Yevropa, AQSh qit'asi, Meksika va boshqa mamlakatlarni birlashtiruvchi TARMOQ bo'lib, u alohida ajratilgan kanallar bilan aloqa bog'laydi. U **OSI** – (Open System Interconnection – ochiq xalqaro bog'lanish tizimi) va TCP/IP qaydnomalariga mos tushmaydi. Uning bir xususiyati – uzatilgan ma'lumotlar uchun haq to'lanmaydi. Hukumat tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi. Uning ko'rsatadigan xizmat doirasi fayllarni uzatish, elektron pochta va masalalarning uzoqdan turib ishlashini ta'minlashdan iborat.

CSNET (1981) (Computer Science Network – Kompyuter va fan tarmog'i) a'zolik badallari va xizmat uchun to'lovlar hisobidan ishlaydi. U butun dunyo olimlarini birlashtiruvchi tarmoq bo'lib, Internet tarkibiga kiradi va TCP/IP qaydnomaii asosida ishlaydi.

EARN – European Academic Research Network **BITMAP** tarmog'i bilan bevosita ulangan bo'lib, juda ko'p milliy tadqiqot muassasalarini birlashtiradi. Uning qaydnomasi RSES bo'lib, ajratilgan kanallar orqali ma'lumot almashiniladi, o'z-o'zini xo'jalik hisobida qoplash asosida ishlaydi.

EUNET – Europe Union Network (Yevropa kompyuter tarmog'i uyushmasi). Uning markaziy qismi Amsterdamda joylashgan. U asosan UNIX operasion sistemasida va UUCP va TCP/IP da ishlaydi.

FIDONET (1984) – shaxsiy kompyuterlar bilan MS va PS DOS boshqaruvida ishlaydigan TARMOQ. Fayllarni telefon simlari orqali uzatadi va UNIX operasion sistemasida ishlaydigan kompyuterlar bilan bog'lanishi mumkin. Fayllarni, bildirishlarni va yangiliklarni UUCP/USWET tarmoqlari bilan uzatishi mumkin.

INTERNET – International Network (xalkaro kompyuter tarmog'i) butun dunyo kompyuter tarmog'idir. U ko'p KTLarni birlashtiradi va TCP/IP qaydnomalari asosida ishlaydi va kompyuter tarmoqlarini tarmoqlararo interfeys – **GATEWAY** (shlyuz) orqali birlashtiradi. Bu tarmoq turli davlat korxonalari, o'kuv yurtlari, xususiy korxonalar va shaxslarning yangi kompyuter texnologiyalari yaratish, joriy qilish va ularning shu sohadagi harakatlarini birlashtirish uchun xizmat qiladi. Hozirda u butun dunyo qit'alarini o'ziga birlashtiradi, Internet tarkibidagi ba'zi kompyuter tarmoqlari – **CSNET**, **NSFNET**, o'z navbatida, katta-katta tarmoqlar bo'lib, o'zlari ham bir necha tarmoqlardan tashkil topgan. Internet-

ning ishini koordinasiya qilishni NIC (Network Information Centry) Stenford universitetidagi SRI (Stanford Research Institute), ko'pincha SRI – NIC deb yuritiluvchi markaz tomonidan boshqariladi.

Internetda **TELNET** (telefon tarmog'i) uzoqqa uzatish, **FTP** (File Transfer Protocol) faylini uzatish, **SMTP** (Simple Mail Transport Protocol) oddiy pochta jo'natish qaydnomalaridan elektron pochta uchun foydalaniladi. Domenlarni nomlash tizimi – **DNS** (Domen Name Systems) ko'llaniladi.

MSI Mail – savdo-sotiq uchun mo'ljallangan ICT ham Internet bilan bog'langan bo'lib, o'z mijozlariga pochta, faksimil va teleks xizmatini ko'rsatadi.

NSFNET – AQShning milliy ilmiy fondi tarmog'i, AQShdagi minglab ilmiy – tadqiqot institutlarini, korporasiya va hukumat idoralarini birlashtiradi. U Amerikadagi eng yirik superkompyuterga ulangan bo'lib, murakkab masalalarni yechishda undan foydalanish imkoniyatini beradi.

USENET (1979) – yangiliklar va elektron pochtaning xalqaro tarmog'i. Universitetlar o'rtasida aloqa o'rnatish maqsadida ish boshlangan bu tarmoq hozirda AQShning deyarli barcha universitetlarini KT orqali birlashtiradi. Hatto undan foydalanuvchilar juda ko'payib ketganligi tufayli, grafikning ancha qismini **UUNET tarmog'i**ga topshirgan. **UUNET** tarmog'i asosan shu maqsad uchun ham yaratilgan.

UUNET – savdo-sotiq bilan bog'liq bo'lmagan tarmoq bo'lib, u **USENET** yangiliklarini **UNIX**da boshlang'ich matnlarni olishni va boshqa ishlarni bajarishni ta'minlaydi. U Internet bilan tarmoqlararo interfeysga ega.

UUCPNET – Unix-to Unix Copy – xalqaro elektron pochta bo'lib, ma'lumotlar **UUCP** nomli dasturlar yordamida uzatiladi. **UUCP** – uzatish uchun qaydnoma, kommunikasiya maqsadlari uchun fayllar to'plami, kommunikasion dasturlar uchun esa buyruqlar to'plamidir. Undan elektron pochta yuborish va telekonferensiyalarda qatnashish maqsadlarida keng foydalaniladi.

1.1. Internet – global kompyuter tarmog'i

1983 yilda - Internet tashkil etildi. Internet-axborotlar bilan mustaqil almashish imkonini yaratdi. Internet (International Network – xalqaro kompyuter TARMOQ) butun dunyoni qamrab olgan global kompyuter tarmog'idir. 1990 yillar o'rtalarida Internet biznes-ishlovlar bilan ishlash uchun ko'llanila boshladi. Biroq, bu borada turli muammolar mavjud edi. Internetning statistik ma'lumotlari quyidagicha:

1981 y.- Internet ga 213 ta kompyuter ulangan;

1983 y.- Internet ga 562 ta kompyuter ulangan;

1986 y.- 5089 ta kompyuter ulangan;

1992 y.- 727000 ta kompyuter ulangan;

1995 y.- 20-40 million kompyuter birlashdi.

Hozirgi kunda Internet dunyoning 150 dan ortiq mamlakatlarida 100 millionlab abonentlarga ega. Har oyda tarmoq miqdori 7-10%ga ortib bormoqda. Internet dunyodagi turli xil ma'lumotlarga oid axborot tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro aloqani amalga oshiruvchi yadroni tashkil qiladi.

Internet qachonlardir faqat tadqiqot va o'quv guruhlarigagina xizmat qilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, u ishlab chiqarish doiralari orasida keng tarqalmoqda.

Kompaniyalarni Internet tarmog'ining tezkorligi, arzon, keng qamrovdagi aloqa, hamkorlik ishlaridagi qulaylik, hammaning ishlashi uchun imkon beruvchi dastur hamda ma'lumotlarning noyob bazasi ekanligi o'ziga tortmoqda. Arzon xizmat narxi evaziga foydalanuvchilar AQSh, Kanada, Avstraliya va boshqa ko'pgina Yevropa mamlakatlarining tijorat yoki notijorat axborot xizmatlariga yo'l topadilar. Internet ning erkin kiriladigan arxividan insoniyat faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladigan axborotlarni, yangi ilmiy yangiliklardan tortib, to ertangi kungi ob-havo ma'lumotigacha bilib olish mumkin.

Ayniqsa, kundalik kommunikasiyaga muxtoj shaxslar, tashkilot, muassasalar uchun ko'pincha telefon orqali to'g'ridan to'g'ri aloqa nisbatan Internet infrastrukturasidan foydalanish anchagina arzon tushadi. Bu narsa, ayniqsa, chet ellarda filiallari mavjud bo'lgan firmalar uchun qulaydir, chunki Internet ning konfidensial noyob aloqalari butun dunyo bo'yicha imkoniyatga ega.

Shu bilan birga yana bir narsani ta'kidlash lozimki internetga gipermatn tushunchasi kirib keldi. 1965 yil Nelson gipermatn so'zini qo'lladi. Van Dam va boshqalar 1967 yilda gipermatn tahrirlovchisini tuzib chiqdi. Nelson 1987 yil ma'lumotlarning gipermatn tahrirlovchisini tuzib chiqdi. Jeneva SERN (CERN) da ishlovchi fizik Tim Bernes Li 1990 yil gipermatnli loyihani taklif etdi. Bu loyiha fizik olimlarga Internet orqali tadqiqot natijalarini o'zaro almashish imkonini berar edi. Shunday qilib xalqaro axborot tarmog'i – World Wide Web (WWW)ga poydevor qo'yildi. 1993 yil Mark Anderson rahbarligida birinchi gipermatnli Mosaic grafik brauzeri ishlab chiqildi va u Netscape korporasiyasiga o'tib Netscape brauzerini ishlab chiqdi.

Shunday qilib biz sevgan gazeta va jurnallarimizning oxirgi ma'lumotlarini WWW so'zlaridan boshlangan manzilda ko'rish va uni shu manzildan nusxasini ko'chirib olish mumkin, degan so'zlar ko'prok uchrab turibdi. Shu bilan birga elektron nashrlar tushunchalarining kamrovi oyma-oy kengayib bormoqda. Elektron usulda chop etilgan yangi-yangi jurnallar paydo bo'lmoqda.

Internetning asosiy tushunchalari:

- 1. Router** (Yo'naltiruvchi) – internetda ma'lumotlar oqimini qulay va yaqin yo'l bilan manzilga yetkazishni rejalashtiruvchi va amalga oshiruvchi dasturlar majmuidir. Odatda yo'naltiruvchi sifatida maxsus kompyuterdan foydalanish yaxshi natija beradi.
- 2. Gateway** (Shlyuz) – ma'lumotlarni uzatishning turli qaydnoma (protokol)larini internet foydalanadigan elektron pochta oddiy qaydnomasi **SMTP** ga (Simple Mail Transfer Protocol – elektron pochta uzatishning oddiy qaydnomasi) aylantiradigan kompyuter. Aslida shlyuz – bu dasturlar majmuidir. Bunda shlyuz maqsadida foydalanadigan kompyuterga katta talablar qo'yilmaydi. Buning uchun unda shlyuz vazifasini o'taydigan dasturlar bilan ishlash imkoni bo'lsa bas.
- 3. Trafik** – Internet aloqa kanallari orqali uzatilgan ma'lumotlar oqimi hajmi.
- 4. DNS server.** DNS (Domin Name Service – domen nomlar xizmati) – IP manzillar va kompyuterlar domen nomlarini aniqlovchi server.
- 5. Proxy.** Internet da ba'zi bir ma'lumotlarga ko'pchilik murojaat qilgani uchun bu ma'lumotlarga oid serverga ulanish (navbat katta bo'lgani uchun) sekin bo'lishi mumkin. Shuning uchun ko'pchilik murojaat qiladigan serverlar nusxalari boshqa

serverlarda ham saqlanadi. Bunday serverlar Proxy serverlar deyiladi.

6. Protokol – bu kompyuterlar orasidagi aloqa o'rnatilishida, ma'lumotlarni qabul qilish va uzatishda foydalaniladigan signallar standartidir. Protokol to'g'ri bo'lsagina kompyuterlar o'rtasida aloqa o'rnatiladi.

7. Server – bu boshqa kompyuter yoki dasturlarga xizmat ko'rsatadigan kompyuter yoki dasturdir. Bitta kompyuterda bir nechta server ishlashi mumkin. Masalan, ftp, WWW, elektron pochta serverilari.

8. Mijoz – server resurslaridan va xizmatidan foydalanuvchi kompyuter yoki dasturdir. Masalan, kompyuter fayl-serverning mijoz bo'lishi mumkin (serverda joylashgan fayllardan foydalanishi), shu bilan bir vaqtda elektron pochta dastursida ishlashi mumkin.

9. URL – (Uniform Resource Locator) Internet ga murojaat qilishning eng oddiy va qulay usuli bo'lib, u manzilni ifodalaydi. Ya'ni bu manzildagi ma'lumotlardan barcha foydalanuvchilar bir paytning o'zida foydalanishi mumkin.

10. Internet xizmati turlari – elektron sahifa, elektron pochta, telekonferensiya, fayllarni uzatish, domen nomlari, Telnet, IRC, yoki Chat konferensiya, ma'lumotlarni izlash xizmatlari tavsiflari keltiriladi.

11. Intranet – bu internet texnologiyasi, dastur ta'minoti va protokollari asosida tashkil etilgan, hamda ma'lumotlar bazasi va elektron hujjatlar bilan kollektiv ravishda ishlash imkonini beruvchi korxonaga yoki konsern miqyosidagi yagona informatsion muhitni tashkil etuvchi kompyuter tarmog'i.

12. IP manzil – Internet da kompyuter tarmoqlari Internet manzili yoki IP manzili belgilash bilan aniqlanadi. IP manzili 32 bit uzunlikda va har bir biri 8 bitdan iborat to'rt qismdan tashkil topgan va har bir qismi 0 dan 255 gacha bo'lgan qiymatlarni qabul qiladi. Qismlar bir-biridan nuqta bilan ajratiladi.

1.2. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi axborot va moliyaviy telekommunikasiya tarmoqlari

MDHda yangi tijorat tarmoqlarini ommaviy ravishda barpo etish 1991 yildan boshlandi va doimiy davom etmolda. Telekommunikasiya xizmatining rivojlanishi xo'jalik va tijorat faoliyatini harakatlantirishning, iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Faol marketeng va texnik siyosatni olib boruvchi ayrim tarmoqlarni sharxlab o'tamiz.

Relcom tarmog'i.

1990 yilda Atom energiyasi institutining va bir qancha ilmiy tadqiqot institutlari (ITI), UNIX-kompyuterlar tizimini ishlab chiquvchi mutaxassislar va foydalanuvchilarni birlashtiruvchi uncha katta bo'lmagan tarmoq tashkil etildi. Hozirda Relcom umumiy maqsadlarga mo'ljallangan tarmoq sifatida rivojlanmolda. U ilmiy va tijorat tashkilotlarini, davlat idoralari va muassasalarini birlashtiradi. Relcom mintaqacha ichida va EUnet, Internet, BitNet abonent tarmoqlarida elektron pochta xizmatini ta'minlaydi.

SprintNet tarmog'i.

SprintNet ma'lumotlarni uzatish tarmog'i bo'lib, o'nlab mamlakatlarning yuzlab shaxarlariga kirish uzellariga ega. SprintNet tarmog'i axborotlarni katta tezlikda almashish imkonini beradi.

Glasnet tarmog'i.

Glasnet tarmog'i 1990 yildan boshlab Rossiya aholisiga va MDHdagi bir qancha davlatlar uchun jahon Internet kompyuter tarmog'iga kirish xizmatini ta'minlaydi. Xususiy mijozlar va tarmoq xizmatidan foydalanuvchi kichik biznes vakillariga e'tibor berish - Glasnetning ajralib turuvchi xususiyati sanaladi.

Sovam Teleport tarmog'i.

Sovam Teleport xalqaro kompyuter axborot tarmog'i SanFrancisco/Moscow Teleport (AQSh), Cable & Wireless (Buyuk Britaniya) kompaniyalari hamda Avtomatlashtirilgan tizimlar instituti (Rossiya) tomonidan 1990 yilda tashkil etilgan. tarmoq joriy vaqt rejimida teleks va telefaks xalqaro axborot almashuv uchun mo'ljallangan.

Bank tarmoqlari va banklararo hisob-kitoblar tizimi.

Naqd pulsiz aylanmaning katta ahamiyati iqtisod uchun ko'plab banklararo pul o'tkazishni o'zaro hisobga olish tizimi yoki kliring bilan almashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Kliringni qo'llashning nisbatan samarali sohalari quyidagicha: Markaziy Bank tizimida banklararo hisob-kitob, pul mablag'larni o'zaro o'tkazishni doimiy takrorlovchi iqtisodiy jihatdan bir-biriga bog'liq korxonalariga xizmat ko'rsatish, bir xildagi tezkor bitimlarni amalga oshirish. Kelajakda aksionerlik kliring va hisob-kitob tuzilmalarini tashkil etish va ularni jahon moliya tizimiga birlashtirish - bu Markaziy Bank siyosatining yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Turli mamlakatlarning davlat ichidagi banklararo tizimi.

AQSh banklari to'lov xabarlarini uzatish uchun quyidagi asosiy kommunikasiya tarmog'idan foydalanadi:

FEDWARE- AQSh federal zahira tizimining kommunikasiya tizimi;

BANKWARE- xususiy banklar va tijorat korxonalari ehtiyojiga xizmat qiluvchi kommunikasiya tizimi;

CHIPS- hisob-kitob palatalari uchun banklararo to'lov tizimi;

Yevropa banklarida quyidagi tizimlar keng ko'llaniladi:

CHAPS- Buyuk Britaniya banklararo kliring hisob-kitoblari tizimi.

BACS- kliring tizimi.

SIT- Fransiya markaziy banki ko'magida 15 ta yirik banklar asosida tashkil etilgan tizim.

Elektron pochta qo'llash.

Elektron pochta - kompyuterlar orasida xabar uzatishni Lokal va Global asosda tashkil qiladi. Elektron pochtdan faqat xabarlarini emas, balki fayllarni uzatish uchun ham foydalaniladi. Ular yordamida tezkor usulda bir yoki bir nechta manzillar bilan axborot almashish mumkin. Elektron pochta qutilari soni 1997 yil boshida 250 millionni tashkil etdi. Elektron ma'lumotlar manzil va ma'lumotlar mavzuidan iborat bo'ladi. Manzil qismi odatda oluvchining manzilgohini, jo'natuvchining manzilgohini, ma'lumot mavzuini, fayllar xabarlariga ilova qilinuvchi axborotlarni o'z ichiga oladi.

Global kompyuter tarmoqlarining tijoratda qo'llanilishi.

Axborot texnologiyalari va zamonaviy texnika yutuqlari bilan o'zaro almashish ehtiyoji global kompyuter tarmoqlarini mamlakatlararo hamkorlik dasturini amalga oshirishning ajralmas qismi qilib qo'ydi. Ilmiy va maorif maqsadlari va

biznes uchun ko'plab kompyuter tarmoqlari tashkil etilgan. Ko'plab tarmoqlarni birlashtira oluvchi va dunyo hamjamiyatiga kirish imkoniyatini beruvchi tarmoq - bu Internet. Internet foydalanuvchiga cheksiz axborot resurslarini taqdim etadi. Do'stona grafik interfeys Internet xizmatidan har bir kishining foydalana olishi uchun imkoniyat yaratadi.

Moliyaviy-iqtisodiy faoliyatdagi global kompyuter tarmoqlari.

Zamonaviy axborot texnologiyasiga ega hisoblash texnikasidan va elektron uzatish tizimidan foydalanmay turib zamon talabiga javob beruvchi moliyaviy muassasalarni tashkil etish mumkin emas. Shu bois, bunday muassasalar ham dasturli – apparat kompleksi sifatida, ham elektron shaklda axborot uzatishning kommunikasiya vositasi sifatida eng yirik iste'molchilar hisoblanadi. Tashkilotlarning alohida avtomatlashtirilgan komplekslarini bog'lovchi global tarmoqlar milliy va xalqaro darajada hisob-kitoblar o'tkazish imkonini beradi.

1.3. Internetda informasion xavfsizlik.

Ma'lumki internet tarmoqlararo informasiya almashinuvini ta'minlavchi magistraldir. Uning yordamida dunyo bilimlar manba'iga kirish, qisqa vaqt ichida ko'plab ma'lumotlar yig'ish ishlab chiqarishning va uning texnik vositalarini masofadan turib boshqarish mumkin. Shu bilan bir qatorda internetning ushbu imkoniyatlaridan foydalanib turmoqdagi begona kompyuterlarni boshqarish ularning ma'lumotlar bazasiga kirish, nusxa ko'chirish g'arazli maqsadda turli xil viruslar tarqatish kabi noqonuniy ishlarni amalga oshirish mumkin. Internetda mavjud bo'lgan ushbu xavf, informasion xavfsizlik muammolari bevosita tarmoqlarning xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Bizning oldingi paragraflarda qayd etib o'tganimizdek ixtiyoriy tarmoq xizmatini o'zaro kelishilgan qoida (protokol) asosida ishlovchi juftlik «Server» va «Mijoz» dastur ta'minoti bajaradi. Ushbu protokollar miqyosida ham «Server», ham «Mijoz» dasturlari ruxsat etilgan amallarini (operasiya) bajarish vositalariga ega. Masalan, NTTR protokoldagi formatlash komandalari Web sahifalarida joylashtirilgan tovush, vidio animasiyalar va har xil aktiv obyektlar ko'rinishidagi mikrodasturlar. Xuddi shunday ruxsat etilgan operasiyalar, aktiv obyektlardan foydalanib internetda ba'zi bir noqonuniy harakatlarni oshirish tarmoqdagi kompyuterlarga va ma'lumotlar bazasiga kirish hamda ularga tahdid solish mumkin bo'ladi.

Bu xavf va tahdid nimalardan iborat:

1. Tarmoqdagi kompyuterlarga ruxsatsiz kirish va uni masofadan turib boshqarish. Ularga sizning manfaatingizga zid bo'lgan dasturlarni joylashtirish mumkin.
2. Web sahifalarida joylashtirilgan «aktiv obyektlar» agressiv dastur kodlari bo'lib, siz uchun xavfli virus yoki josus dastur vazifasini o'tashi mumkin.
3. Internetda uzatilayotgan ma'lumotlar yo'l yo'lakay aloqa kanallari yoki tarmoq tugunlarida tutib olinishi ulardan nusxa ko'chirilishi, almashtirilishi mumkin.
4. Davlat muassasasi, korxonasi faoliyati, moliyaviy ahvoli va uning xodimlari haqidagi ma'lumotlarni razvedka qilinishi o'g'irlashi va shu orqali sizning shaxsiy hayotingizga, korxonasi rivojiga tahdid solishi mumkin.
5. Internetda e'lon qilinayotgan har qanday ma'lumot ham jamiyat uchun foydali bo'lmasligi mumkin, ya'ni internet orqali bizning ma'naviyatimizga,

madaniyatimizga va e'tiqodimizga zid bo'lgan informasialarni kirib kelishi ehtimoli ham mavjud.

Internet foydalanuvchisi ushbu xavflarni oldini olish uchun quyidagi texnik yechim va tashkiliy ishlarni amalga oshirishi zarur:

1. Shaxsiy kompyuterga va mahalliy kompyuter tarmog'iga hamda unda mavjud bo'lgan informasion resurslarga tashqaridan internet orqali kirishni cheklovchi va ushbu jarayonni nazorat qilish imkonini beruvchi texnik va dasturviy usullardan foydalanish.
2. Tarmoqdagi informasion muloqat ishtirokchilari va ular kuzatayotgan ma'lumotlarni asl nusxasiga mosligini tekshirish.
3. Ma'lumotlarni uzatish va qabul qilishda kriptografiya usullaridan foydalanish
4. Viruslarga qarshi nazoratchi va davolovchi dasturlardan foydalanish.
5. Shaxsiy kompyuter va mahalliy kompyuter tarmog'iga begona shaxslarni qo'ymaslik va ularda mavjud bo'lgan ma'lumotlardan nusxa olish imkoniyatlarini cheklovchi tashkiliy ishlarni amalga oshirish.

Bundan tashqari informasion xavfsizlikni ta'minlash borasida internet foydalanuvchilari orasida o'rnatilmagan tartib qoidalar mavjud. Ulardan ba'zi birlarini keltiramiz:

- Hyech qachon hyech kimga internetdagi o'z nomingiz va parolingizni aytmang.
- Hyech qachon hyech kimga o'zingiz va oila a'zolaringiz haqidagi shaxsiy hamda ishxonangizga oid ma'lumotlarni internet orqali yubormang.
- Elektron manzilingiz (*E-mail*)dan maqsadli foydalaning. Internet orqali dasturlar almashmang.
- Internetda tarqatilayotgan duch kelgan dasturlardan foydalanmang. Dasturlarni faqat ishonchli egasi ma'lum bo'lgan serverlardan ko'chiring.
- Elektron pochta orqali yuborilgan «aktiv obyektlar» va dasturlarni ishlatmang, yoki qo'shimchali o'z-o'zidan ochiluvchi sizga noma'lum arxiv holiday ma'lumotlarni ochmang.
- Elektron pochta xizmatidan foydalanayotganingizda ma'lumotlarni shifrlash zarur, ya'ni kriptografiya usullaridan foydalaning.
- Egasi siz uchun noma'lum bo'lgan xatlarni ochmang.
- Egasi ma'lum bo'lgan va uning sifatiga kafolat beruvchi antivirus dasturlardan foydalaning va ularni muntazam yangilab boring.
- Internetda mavjud bo'lgan informasion resurslar va dasturlardan ularning mualliflari ruxsatisiz foydalanmang.
- tarmoqdagi begona kompyuter va serverlarning IP manzillarini aniqlash va shu orqali ruxsat etilmagan serverlar va informasion resurslarga kirish nusxa ko'chirish, viruslar tarqatish kabi noqonuniy dasturlashtirish ishlari bilan shug'ullanmang, bu jinoyatdir.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Tarmoq deganda nimani tushunasiz.
2. Qanday tarmoq turlari mavjud.

3. Birinchi global tarmoq nima deyilgan.
4. Internet –llobalal tarmog'i.
5. Birinchi bor internetga nechta kompyuter ulangan.
6. Iternetning asosiy tushunchalari.

1.3.2-b. Blis-so'rov uchun savollar

1. Bank tarmoqlari va banklararo xisob-kitob tizim qanday.
2. Elektron pochta nima.
3. Internetda informasion xavfsizlik.
4. Internetda xavfg'taxdid nimalardan iborat.
5. Glasnet tarmog'i qanday tarmoq.
6. Gipermat tushunchai.
7. Internet nechanchi yilda tashkil qilindi.
8. OSI –modeli.
9. URL manzil.
10. Server tushunchasi.

1.3.2-v. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. Tarmoq deganda nimani tushunasiz.
2. Qanday tarmoq turlari mavjud.
3. Birinchi global tarmoq nima deyilgan.
4. Internet –llobalal tarmog'i.
5. Birinchi bor internetga nechta kompyuter ulangan.
6. Iternetning asosiy tushunchalari.
7. Bank tarmoqlari va banklararo xisob-kitob tizim qanday.
8. Elektron pochta nima.
9. Internetda informasion xavfsizlik.
10. Internetda xavfg'taxdid nimalardan iborat.
11. Glasnet tarmog'i qanday tarmoq.
12. Gipermat tushunchai.
13. Internet nechanchi yilda tashkil qilindi.
14. OSI –modeli.
15. URL manzil.
16. Server tushunchasi

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Kompyuter tarmoqlariini tashkil etishni o'rganish.
2. Internetda mavjud tushunchalarni o'zlashtirish.
3. Elektron pochtni qo'llashni o'rganish.
4. Internetda informasion xavfsizlikni ta'minlash yo'llarini o'rganish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1. Birinchi qaysi davlatda va qachon global tarmoq tashkil qilingan.

- A) AQSh
- B) Yaponiya
- S) Afrika
- D) Shvesiya

2. Nechanchi yilda internet global tarmog' i tashkil etilgan.

- A) 1983 yil
- B) 1970 yil
- S) 1995 yil
- D) 1970 yil

3. Birinchi bor internet global tarmog'iga nechta kompyuter ulangan.

- A) 213 ta
- B) 220 ta
- S) 500 ta
- D) 90 ta

4. Server nima.

- A) boshqa kompyuterlarga xizmat ko'rsatadigan kompyuter.
- B) Tarmoqga ulovchi uskuna.
- S) Internet bilan ulovchi vosita.
- D) xammasi to'g'ri.

5. Elektron pochta nima.

- A) Kompyuterlar orasida xabar uzatishni tashkil qiluvchi vosita.
- B) Kompyuterlar orasida xabar qabul qiluvchi vosita.
- S) Tarmoq turi.

D) A va B to'g'ri.

6. Birinchi gipermatn taxirlovchisini kim tuzib chiqdi.

A) Nelson

B) Bil Geyts

S) Tim Berners

D) Van Dam

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko'rsatish(slaydlar)

- Prezentasiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Matrosov S.Ch. i dr. HTML 4.0 v podlinnikе. BHV-SPb, 2000. 672 s.
2. Uilton P. JAVASCRIPT. Osnovy. Simvol-plyus. 2002. 1056 s.
3. Kingli-Xyu E., Kingli-Xyu K. JAVASCRIPT 1.5: Uchebnyy kurs. Piter. 1-ye izdaniye. 2002.
4. Tomson L., Velling L. Razrabotka Web-prilozheniy na PHP i MySQL. - K.: "DiaSoft", 2001. - 672 s.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Speynauer S., Kuersia V. Spravochnik Web-mastera. - K: "BHV", 1997. - 368 s.
2. Brandenbau. JAVASCRIPT. Sbornik reseptov dlya professionalov. SPb. 2001.
3. Ratshiller T., Gerken T. PHP4: razrabotka Web-prilozheniy. Piter, 2001. - 384 s.
4. Yarger R., Riz Dj., King T. MySQL i mSQL. Bazy dannykh dlya nebolshix predpriyatiy i Interneta. - SPb: Simvol-Plyus, 2000 - 560 s.
5. Xilayer S., Mizik D. Programirovaniye Active Server Pages. - M: "Russkaya redaksiya", 1999. - 296 s.
6. Xolzner S. Perl: spetsialnyy spravochnik. - SPb: "Piter". 2000. - 496 s.
7. Shvars R., Kristiansen T. Izuchayem Perl. - K: "BHV", 2000. - 320 s.

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hyech qanday o'zaro baholash va tanqid;

- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhilda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. “Insert” texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kelayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- “Insert” jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
 Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
 Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
 Agar «+» bo'lsa siz o'qiyotganingiz siz uchun yangilik;
 Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma'lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmat ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok yetishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

**Mavzu 2.3. WYeB –TEKNOLOGIYaLAR VA ULARNING TASNIFI, WEB
–DIZAYNING USKUNAVIY VOSITALARI.
TA'LIMIY INTERNET RESURSLARI: SAYT VA PORTAL TUZILMASI
VA ASOSIY XIZMATLARI.**

Ma'ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: PEDAGOGIK WYeV -DIZAYN.

O'quv soatii: 4 soat (ma'ruza);

O'quv mashg'ulotlari turi: ma'ruza; yangi mashg'ulotlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma'ruza rejasi:

1. Web brauzerlar
2. Netscape Communicator
3. Internet Explorer
4. WWW ga kirish
5. HTML asoslari

O'quv mashg'uloti maqsadi:

Talabalarga Web brauzer tushunchasi, brauzerlar turlari, HTML dasturlash tili asoslari tushunchalari xaqida ma'lumot berish

O'quv mashg'ulotining vazifalari:

- *O'rgatuvchi:* talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich yesda qoldirish va anglash; terminlar, iboralarni xarakterlovchi elementlar; talabalarning firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish;
- *rivojlantiruvchi:* kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma'ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma'ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blis-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya yetiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma'ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma'ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma'ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xarakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta'riflarini beradi,
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralar bilan ishlay olishligi;

1.2. Ma'ruzaning xronologik xaritasi

1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma'ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma'ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini yeslashga chorlaydi; ma'ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif yetadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif yetadi;

birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);

- *Talabalar faoliyati:* yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni yeshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar:* frontav so'rov blis-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mnavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning ye'tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me'zonlari;
- *Talabalar faoliyati:* ishning tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar:* guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma'ruza rejasi:

1. Web brauzerlar
2. Netscape Comunicator
3. Internet Explorer
4. WWW ga kirish
5. HTML asoslari

Kalit so'zlar: brauzer, WWW, TEG, HTML, WEB saxifa, korporativ sayt, NETSCAPE NAVIGATOR, INTERNET EXPLORER, MOSAIC.

1.3.1. Ma'ruza matni

2.1. Web brauzerlar

HTML da yozilgan Web sahifa odatda brauzer deb nomlanuvchi maxsus dastur yordamida quriladi. Bu so'zning o'zbekchaga to'g'ridan – to'g'ri tarjimasini «sharxlovchi dastur» manosini beradi. Brauzerning asosiy vazifasi foydalanuvchi talabiga muvofiq manzilni internetdan topish va qiyinchiliksiz uni tasvirlashdir.

Oldiniga brauzer HTML tilida yozilgan «instruksiyani» tahlil qiladi va bu instruksiya yordamida Web sahifada mavjud bo'lgan axborotni tasvirlaydi.

Hozirgi kunda eng ko'p ishlatiladigan 2 ta Web brauzer mavjud bo'lib Web sahifa tayorlovchilar bu brauzerlarning xususiyatlarini e'tiborga olishlari kerak. Bular "*Netscape Navigator*" va "*Microsoft Internet Explorer*" (*IE*) brauzerlaridir. Aslida brauzerlar juda ko'p, lekin ular dunyoda ishlatilayotgan brauzerlarning bor - yo'g'i 1% ni tashkil qiladi. Qolgan 75% ni *IE*, 24% ni esa "*Netscape Navigator*" egallaydi. Demak shunday ekan ko'pchilik hollarda shu 2 ta brauzer haqida so'z yuritiladi.

Keling endi brauzerlar tarixiga nazar tashlaylik. 1989-yilda Shveysariyada CERN (The European Laboratory for Particle physics) olimlari tomonidan WWW tizimiga asos solingandan keyin uning axborot manbalarini ochib ko'rish muammosi paydo bo'ldi.

Bu muammoni hal qiluvchi dastlabki dasturlardan biri bu *Lynx* tipidagi satrli brauzerdir. Shunday qilib dastlabki satrli brauzerlar paydo bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan brauzerlardan faqat matnlarni emas, balki ovoz, grafika va tasvirlarni tasvirlash ham talab qilindi. Grafik ma'lumotlarni matnli ma'lumotlar kabi ko'rish masalasi birinchi bo'lib *Mosaic* brauzeri tomonidan amalga oshirilgan.

Mosaic brauzeri *UNIX*, *PC* va *Macintosh* platformalarida ishlashga mo'ljallangan bo'lib bepul brauzerdir. Keyinchalik *Mosaic* va *Silicon Graphics* asoschilari birlashib hozirgi kunda yetakchi brauzerlardan bo'lgan *Netscape* brauzeriga asos soldilar.

2.2. Netscape Communicator

Bu brauzer eng mashxur va ko'p ishlatiladigan Web brauzerlardan biridir. *Netscape* kompaniyasi foydalanuvchi uchun juda sodda va qulay bo'lgan ushbu dasturni bepul tarqatib Internet va WWW olamida inqilob qildi. Yillar davomida bu dastur Internet muhitida aloqa vositalarini o'zida to'liq mujassam qildi. Bu dasturga elektron pochta va yangiliklarni o'qish vositalari qo'shildi. Bularning hammasi birgalikda *Netscape Communicator* deb nom oldi.

Agar siz ushbu brauzerdan foydalanmoqchi bo'lsangiz u holda <http://home.netscape.com> sahifaga kirib dasturni kompyuteringizga o'rnatishingiz mumkin. *Netscape* ochiq arxitekturaga ega, ya'ni u *Java* va *JavaScript* tillarida yozilgan dasturlarni tushinadi. *Netscapening* yuqoridagi imkoniyatlari va uning ixtiyoriy platformalar (*Windows*, *Macintosh*, *OS/2* va *UNIX* ning barcha versiyalari) bilan birga ishlay olishi uning mashhurligini yanada oshiradi.

2.3. Internet Explorer

Netscape ning jiddiy raqobatchisi Microsoft firmasining *Internet Explorer* brauzeri hisoblanadi. Bu brauzer *Netscapening* yangi imkoniyatlarini o'zida mujassam qilgan va o'zining ilg'or texnologiyasiga ega bo'lgan brauzerdir. *Internet Explorer* HTML tilining hamma versiyalarini tushinadi. *Internet Explorer*da ishlash Microsoft ning boshqa mahsulotlari bilan tanish bo'lgan foydalanuvchi uchun juda qulaydir. Uning ishlash tartibi deyarli Netscapeniki kabidir. Bu ikkala brauzerlarning har biri o'zining maxsus imkoniyatlariga ega. Shu sababli bu ikkala brauzerning faqat bittasi yaxshi desak biz xato qilamiz.

Shuning uchun ham hozirda ikkala brauzer ham juda keng miqyosda ishlatilib kelinmokda.

2.4. WWW ga kirish

Internetning eng ma'lum va keng tarqalgan qismi bu WWW (World Wide Web) deb nomlanuvchi to'rdir. Bu to'r Web saytlar va alohida Web sahifalardan tashkil topgan. Web sahifalar esa HTML tili yordamida yaratiladi.

HTML tilidan foydalanish uchun dasturchi mutaxassis bo'lish shart emas, chunki bu til juda oddiy va har kim undan foydalanishi mumkin. HTML da ishlash uchun oddiy kompyuter foydalanuvchisi bo'lish va internetda ishlash bo'yicha ozgina malakasi bo'lsa yetarli. HTML tili yordamida har kim o'zining shaxsiy Web sahifasini yoki butun boshli bir Web saytini yaratish orqali o'zini butun dunyo axborot fazosida his qilishi mumkin. Albatta faqat HTML ni bilish interaktiv savdo saytlarini yaratish uchun yetarli emas. Bunday jiddiy maqsadlar uchun dasturlash bo'yicha yaxshi bilim va internetning har xil texnologiyalarini bilish talab qilinadi.

Ammo HTML ning qulayligi shundaki bu sodda instrument orqali zarur axborot Web saytlarini yaratish mumkin. HTML (jihozlari) tarmoq foydalanuvchilari uchun 5-10% ni inobatga olmaganda hamma imkoniyatlarga ega. Agarda o'zingizning saytingizda biror maxsus texnologiyalarni qo'llash zurrati tug'ilsa, u holda yana boshqa adabiyotlarni o'rganish lozim bo'ladi. Yangi tarmoq dasturini o'rganishdan oldin esa HTML ning imkoniyatlarini qo'llashni o'rganish lozim. Ushbu qo'llanmadan biz bu imkoniyatlar haqida deyarli hamma narsani bilib olamiz.

HTML boshqa zamonaviy tarmoq dasturlari texnologiyalariga nisbatan sodda bo'lsada, internet – butunjahon to'ri shu til (HTML) yordamida yaratilgan bir qancha xususiy va korporativ saytlarning majmuasidir. Internet texnologiyasi va shu bilan birga HTML tili ham kompyuter industriyasining rivojlanishiga bo'lgan bir yordam bo'ldi.

Internet - bu cheksiz imkoniyatdir, ammo bu imkoniyatlardan foydalanish uchun saytlarni yaratish bilan bog'liq uslublarni o'rganish o'rinlidir. Yuqorida HTML tili butun jahon to'ri uchun asos va baza ekanini aytib o'tgan edik.

2.5. HTML asoslari

Internet – sayyoramiz miqyosidagi kompyuter tarmoqlarining birlashmasidir. Agar kosmik stansiya a'zolarining E-mail dan foydalanishini inobatga olsak internetning sayyoramiz sarhadlaridan chiqqanini ham ko'rishimiz mumkin.

Butun dunyo o'rgimchak to'ri WWW (World Wide Web) - bu ko'p sonli o'zaro bir-biriga bog'langan hujjatlardir. Web sahifada boshqa Web sahifalar bilan bog'lovchi chekli gipermurojaat bo'ladi. Gipermurojaat mexanizmini bir necha so'z bilan izohlash qiyin, lekin kamida bir marta Web sahifaga kirib ishlagan odam buni darhol tushunadi.

Gipermurojaat butunjahon o'rgimchak to'ridan hujjatning URL deb nomlanuvchi manzilini qidirishda ishlatiladi. Biz bilamizki Web sahifaning asosiy

mohiyati axborotni tacvirlash va uni har bir foydalanuvchi uchun ochib berishdir. Bunda bir qancha funksional cheklanishlar mavjud, ya'ni biz oldindan Web sahifani ko'ruvchining kompyuteri qanday, monitoring imkoniyati qanday va ko'rish oynasining qanday o'lchamda o'rnatilganligini bilmaymiz. Biz hattoki foydalanuvchining qanday operasion muhitda ishlayotganini ham bilmaymiz. Web sahifa esa INTEL mashinada ham Makentoshda ham bir xil ko'rinishda bo'lishi kerak. Foydalanuvchi o'z operasion muhitida qanday yozuv shriftlar o'rnatganligi yoki uning videokartasi qancha rangni ko'tara olishi ham malum emas. Yuqoridagi malumotlarning yo'qligi yoki yetarli emasligi umumaxborot almashish tilining paydo bo'lishiga to'siq bo'lishi kerak edi, lekin bunday bo'lmadi.

Gap shundaki 1986 yili xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan qog'ozdagi hujjatni ekranda tasvirlash imkonini beruvchi hamma variantlarni etiborga olgan SGML (Standart Generalired Markup Language) tili yaratildi. Hamma imkoniyatlarni etiborga olgan kuchli sistema ishlab chiqildi.

Web sahifa uchun bu yaxshi yo'l deb hisoblangan edi. Lekin bu til qonun qoidalari izohi yuzlab sahifalarni egalladi. Bunday til asosida yaratilgan sahifani tasvirlovchi dasturni ishlab chiqish uchun juda ko'p vaqt ketgan bo'lardi, shuning uchun Internet ehtiyoji uchun SGML tilining malum bir qismi tanlab olindi va HTML (Hyper Text Markup Language) deb nomlandi. HTML tilida yozilgan Web sahifa faylida axborotning qanday tasvirlanishi haqidagi yo'l yo'riqlar ketma – ket joylashgan bo'ladi. Bu fayl oddiy matnli fayl bo'lib uni maxsus brauzer datsturlarsiz o'qish qiyin. Grafik rasmlarni esa umumman ko'rib bo'lmaydi chunki uning o'rnida brauzer dasturga biror rasm kerakligini ko'rsatuvchi TEG turadi. Agar biz o'z Web sahifamizni yaratmoqchi bo'lsak, albatta HTML tilini yaxshi bilishimiz kerak bo'ladi.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Brauzerlar tushunchasi va turlari.
2. Grafik ma'lumotlarni matnli ma'lumotlar kabi ochilishi birinchi bor qaysi brauzer orqali amalga oshirilgan.
3. Netscape Comunicator brauzerining ishlash jarayoni.
3. Internet Explorer brauzerining ishlash jarayoni.
4. WWW ga kirish kirish nima orqali amalga oshiriladi.
5. HTML asoslari nimalardan iborat

1.3.2-b. Blis-so'rov uchun savollar

1. HTML tilining qanday xususiyatlarini bilasiz.
2. Gipermatn mexanizmini izoxlab bering.
3. SGML tili qanday til.
4. TEG tushunchasi.

1.3.2-v. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. Brauzerlar tushunchasi va turlari.

2. Grafik ma'lumotlarni matnli ma'lumotlar kabi ochilishi birinchi bor qaysi brauzer orqali amalga oshirilgan.
3. Netscape Communicator brauzerining ishlash jarayoni.
4. Internet Explorer brauzerining ishlash jarayoni.
5. WWW ga kirish kirish nima orqali amalga oshiriladi.
6. HTML asoslari nimalardan iborat
7. HTML tilining qanday xususiyatlarini bilasiz.
8. Gipermatn mexanizmini izoxlab bering.
9. SGML tili qanday til.
10. TEG tushunchasi.

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Brauzerlarni kompyuterga o'rnatish .
2. Grafik ma'lumotlarni matnli ma'lumotlar kabi ochilishi birinchi bor qaysi brauzer orqali amalga oshirilgan.
3. Netscape Communicator brauzerining ishlash jarayonini o'rganish.
4. Internet Explorer brauzerining ishlash jarayonini o'rganish.
6. HTML dasturlash tilida ishlatiladigan asosiy teglarni o'rganish.
7. HTML tilining qanday xususiyatlarini bilasiz.
8. Gipermatn mexanizmini izoxlab bering.
9. SGML tili qanday til.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1. Brauzer so'zi qanday ma'noni anglatadi.

- A) sharxlovchi dastur
- B) nusxa oliuvchi dastur
- S) virusga qarshi kupashuvchi dastur.
- D) kompyuterni yuklovchi dastur.

2. Dastlabki satrli brauzer qanday nomlangan.

- A) LUNX
- B) NETSCAPE NAVIGATOR
- C) INTERNET EXPLORER
- D) MOSAIC

3.WWW nimalardan tashkil topgan

A) WEB saytlardan

B) WEB saxifalardan

S) dasturlardan

D) A va B to'g'ri javob.

4.Xalqaro standartlashtirish tashkiloti nima deb ataladi.

A) ISO

B) OSI

C) URL

D) INTEL

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko'rsatish(slaydlar)

- Prezentasiya

1.3.6. Tavsiya yetilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

5. Matrosov S.Ch. i dr. HTML 4.0 v podlinnikе. BHV-SPb, 2000. 672 s.
6. Uilton P. JAVASCRIPT. Основы. Simvol-plyus. 2002. 1056 s.
7. Kingli-Xyu E., Kingli-Xyu K. JAVASCRIPT 1.5: Uchebnyy kurs. Piter. 1-ye izdaniye. 2002.
8. Tomson L., Velling L. Razrabotka Web-prilozheniy na PHP i MySQL. - K.: "DiaSoft", 2001. - 672 s.

Qo'shimcha adabiyotlar

8. Speynauer S., Kuersia V. Spravochnik Web-mastera. - K: "BHV", 1997. - 368 s.
9. Brandenbau. JAVASCRIPT. Sbornik reseptov dlya professionalov. SPb. 2001.
- 10.Ratshiller T., Gerken T. PHP4: razrabotka Web-prilozheniy. Piter, 2001. - 384 s.
- 11.Yarger R., Riz Dj., King T. MySQL i mSQL. Bazy dannykh dlya nebolshix predpriyatiy i Interneta. - SPb: Simvol-Plyus, 2000 - 560 s.
- 12.Xilayer S., Mizik D. Programmirovaniye Active Server Pages. - M: "Russkaya redaksiya", 1999. - 296 s.
- 13.Xolzner S. Perl: spetsialnyy spravochnik. - SPb: "Piter". 2000. - 496 s.
- Shvars R., Kristiansen T. Izuchayem Perl. - K: "BHV", 2000

1.4.O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hyech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif yetilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvuringga yerik ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. “Insert” texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kelayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- “Insert” jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
Agar «+» bo'lsa siz o'qiyotganingiz siz uchun yangilik;
Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma'lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmat ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok yetishi lozim;
- Biz bir kemedamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 4: WEB –RESURSLARNI PEDAGOGIK LOYIXALASH.

Ma'ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: PEDAGOGIK WEB -DIZAYN.

O'quv soatii: 4 soat (ma'ruza);

O'quv mashg'ulotlari turi: ma'ruza; yangi mashg'ulotlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ish rejasi:

1. TEG lar
2. Metama'lumotlar
3. Identifikatorlar
4. Ishlatiladigan belgilar.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

Talabalarga TEGlar tushunchasi, Metama'lumotlar tushunchasi, Identifikatorlar, dasturlashda ishlatiladigan belgilari tushunchalari xaqida ma'lumot berish

O'quv mashg'ulotining vazifalari:

- *O'rgatuvchi:* talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich yesda qoldirish va anglash; terminlar, iboralarni xarakterlovchi elementlar; talabalarning firflashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish;
- *rivojlantiruvchi:* kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma'ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma'ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blis-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya yetiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma'ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma'ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma'ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xarakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta'riflarini beradi,
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralar bilan ishlay olishligi;

• 1.2. Ma'ruzaning xronologik xaritasi

• 1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma'ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma'ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini yeslashga chorlaydi; ma'ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif yetadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif yetadi;

birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);

- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi; har bir kalit ibora va terminlarni yeshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blis-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning ye'tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me'zonlari;
- *Talabalar faoliyati*: ishning tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma'ruza rejasi:

1. TEG lar
2. Metama'lumotlar
3. Identifikatorlar
4. Ishlatiladigan belgilar.

Kalit so'zlar: ochiluvchi va yopiluvchi teg, metama'lumot, identifikator, inline va blokli elementlar, parametr, qiymat.

1.3.1. Ma'ruza matni

3.1. TEG lar

HTML ning konstruksiyasi TEG lar deyiladi. Brauzer TEG larni oddiy matnlardan farqlashi uchun ular burchak qavslarga olinadilar. TEG tasvirlash jarayoni hatti harakatlarining boshlanishini bildiradi. Agar bu harakat butun hujjatga talluqli bo'lsa, bunday teg o'zining yopiluvchi juftiga ega bo'lmaydi. Juft teglarning ikkinchisi birinchisining harakatini yakunlaydi. Masalan, har bir Web sahifa `<html>` tegi bilan boshlanib `</html>` tegi bilan yopilishi kerak. Etibor bergan

bo'lsangiz yopiluvchi teg ochiluvchidan « / » belgisi bilan farq qiladi. Teg nomlari katta yoki kichik harflar bilan yozilishi mumkin, bularni brauzer bir xil qabul qiladi. HTML tilida boshqa kompyuter tillaridagi kabi izoh berish imkoniyati mavjud. Izoh quyidagi «<- - » va «- ->» belgilar orsiga yoziladi.


Masalan:

```
<-- Bu izox -->
```

Har qanday Web sahifa ikkita qismdan tashkil topadi. Bular sarlavha qismi va asosiy qism. Sarlavha qismida Web sahifa haqidagi malumot joylashadi, asosiy qismda esa Web sahifaning mazmuni bilan tasvirlanish qoidalari joylashadi. Sarlavha qismi quyidagi ochiluvchi <head> va yopiluvchi </head> teglari orasida joylashadi. Asosiy qism esa <body> va </body> teglari orasida joylashadi. Odatda sarlavha qismi oldidan qo'llanilayotgan HTML standartlari haqida malumot yoziladi. Har qanday Web sahifaning umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

Misol 3_1:

```
<!DOCTYPE HTML PUBLIC "-//W3C//DTD HTML 4.01//EN ">
<html>
  <head>
    <title>
      Hujjat sarlavhasi
    </title>
  </head>
  <body>
    Asosiy qism
  </body>
</html>
```




Rasm 3_1.

Birinchi *<!Doctype>* tegi o'zining parametrlari bilan brauzerga ushbu Websahifani qaysi HTML versiyada yozilganligi haqida malumot beradi.

Web sahifa ishga tushurilganda brauzerning eng yuqori satrida yuklanayotgan hujjat mazmunini anglatuvchi qisqacha yozuv turadi. Bu yozuvni hosil qilish uchun quyidagi ochiluvchi *<title>* va yopiluvchi *</title>* teglaridan fodalanamiz.

Misol 3_2:

```
<html>
<head>
  <title>Web sahifa sarlavhasi</title>
</head>
<body>
</body>
</html>
```



Rasm 3_2.


Web sahifaning asosiy qismi *<body>* va *</body>* teglari orasida joylashadi. Bu oddiy matn bo'lishi mumkin. Brauzer bu matnni tug'ridan to'g'ri interpretasiya qilib ekranda tasvirlaydi. Bizga dastlabki Web sahifamizni yaratish uchun oddiy «Bloknot» matn muharriri kifoya. Quyida ko'rsatilgan misolni matn muharririda yozib, uni xotiraga yozishda kengaytmasini html yoki htm deb kiritishimiz kerak.

Misol 3_3:

```
<html>
<head>
  <title>Mening birinchi Web sahifam </title>
</head>
<body>
  Mening bu sahifamga kiruvchilarga alangali salom
```


</body>
</html>

Bu faylni ishga tushirish uchun sichqoncha ko'rsatkichini shu fayl ustiga keltirib chap tugmasini ikki marta bosish kerak. Natijada ekranda quydagi ko'rinishdagi natija hosil bo'ladi:



Rasm 3.3

<body> tegi bir qancha qo'shimcha parametrlarga ega. Bu parametrlar te-
gning ochiluvchi qismida joylashadi. Parametrlar ikki qismdan iborat bo'ladi: par-
ametr nomi va parametr qiymati. Masalan *bgcolor* parametri tasvirlanayotgan Web
sahifa fonining rangini belgilaydi.

Masalan: `<body bgcolor = "green">`

Parametrlarning satrli qiymatlari qo'shtirnoq ichida yoziladi. Biz quyida <body>
tegining parametrlari bilan tanishamiz.

- *Background* - fon sifatida biror bir grafik tasvirdan foydalanish. Parametr qiymati sifatida grafik tasvir joylashgan manzil (URL) beriladi.
- *Text* - tasvirlanayotgan matn rangi.
- *Link* - Web sahifadagi matnli gipermurojat rangi.
- *Vlink*-foydalanuvchi tomonidan oldin murojat qilingan gipermurojaat rangi.
- *Alink* - foydalanuvchi tomonidan tanlangan gipermurojaat rangi.
- *Lang* – Web sahifa matni yozilgan tilni aniqlash.

3.2. Metama'lumotlar

Endi biz metama'lumotlar bilan tanishib chiqamiz. Web sahifalarda meta
ma'lumotlarini hosil qilish uchun <meta> tegi ishlatiladi, uning umumiy ko'rinishi
quyidagicha:

`<meta name="o'zgaruchi nomi" content="o'zgaruvchi qiymati">`


Agarda biz Web sahifadagi **avtor** haqida ma'lumot yozmoqchi bo'sak uni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

```
<meta name = "Auther" content= "Bu meniki!!!">
```

Meta ma'lumotlar asosan Internet da joylashgan qidirish mashinalari uchun zarur. Qidirish mashinalari Web sahifalar haqidagi ma'lumotlarni qayerdan oladi degan savol paydo bo'ladi. Xuddi shu ma'lumotlarini qidirish mashinalari met-ao'zgaruvchilardan oladi. (Web sahifa qaysi sohaga tegishli, unda qanday ma'lumotlar borligi) *<meta>* tegida *keymards* va *description* o'zgaruvchisi bor. *Keymards* o'zgaruvchili Web sahifadagi kalitli so'zlar ro'yxatini o'zida saqlaydi. *description* o'zgaruvchi esa Web sahifaning qisqacha ma'lumotini o'zida saqlaydi. Masalan, bizning Web sahifamiz kompyuter viruslari haqida tayyorlangan bo'lsin u holda HTML hujjatda meta ma'lumotlarni quyidagicha yozish mumkin:

Misol 3_4.

```
<html>
  <head>
    <title>kompyuter viruslari </title>
    <meta name="keywords" lang="ru" sontent=" virus,
      kompter, antivirus,...">
    <meta name="description" content="Web sahifadagi kompter vi-
      ruslariga bag'ishlangan.
  </head>
  <body>
    kompyuter viruslari bu ....
  </body>
</html>
```



Rasm 3_4.

Brauzerlar foydalanuvchi tomonidan ochib ko'rilgan Web sahifalarini kesh xotirada saqlab qoladi. Agar foydalanuvchi yana shu sahifalarga murojaat qilsa, Web brauzer oldindan kesh xotirada mavjud bo'lgan (yana yangi sahifani internetdan olmasdan) nusxasini olib ko'rsatadi. Bu jarayon foydalanuvchining vaqtini va iqtisodini tejaydi. Endi Web sahifa qachon yangilanadi degan savol paydo bo'ladi. Bu savolga metama'lumotlardagi *expres* o'zgaruchilardan javob olish mumkin. Bu o'zgaruvchida Web sahifaning yaroqlilik muddati ko'rsatiladi. Agar kesh xotiradagi web sahifa yaroqlilik muddati o'tgan bo'lsa, brauzer tarmoqdan Web sahifani qaytadan o'qib oladi.

Misol:

```
<meta http-equiv="Expres" content="Tue,uf Aug 2002 14:56:27 Gmt">
```

Web sahifalarda ma'lumotlar tez o'zgarishi mumkin, masalan chatlarda va birja sahifalarida ma'lumotlar tez o'zgaradi. Bunday hollarda *ryefresh* o'zgaruvchisidan foydalaniladi va qiymatlari sekundlarda beriladi.

Masalan:

```
<meta http-equiv="Refresh" content=10>
```

Bu yozuvdan keyin Web sahifa har 10 sekunddan keyin avtomatik tarzda o'zi qayta yuklanadi.


3.3. Identifikatorlar.

HTML tilida har bir qo'llanilgan tegga unikal idintifikator berish imkoniyati mavjud. Masalan matn bir necha abzaslardan tashkil topgan bo'lsin. Har bir abzasga mos maxsus nom berish mumkin, keyinchalik HTML tilining qo'shimcha imkoniyatlari yordamida bu abzaslarni boshqarish mumkin, ya'ni ularning birortasini ko'rinmas qilish yoki shrifti rangini o'zgartirish.

Yuqoridagi ishlar faqat abzaslar uchun emas, balki Web sahifaning ixtiyoriy qismi uchun ta'luqlidir. Biror bir tegni nomlash uchun *id* parametri ishlatiladi. Abzaslar `<p>` va `</p>` orqali ko'rsatiladi.

Misol 3_5.

```
<html>
  <head><title>Abzaslar</title></head>
  <body>
    <p id ="p1"> Birinchi abzas </p>
    <p id ="p2"> Ikkinchi abzas </p>
  </body>
</html>
```



Rasm 3_5.

HTML hujjatda *id* parametri qiymatlari takrorlanmasligi lozim, aks holda bu qiymatlar e'tiborga olinmaydi.


class parametri faqat shakl bezash ishlarida ishlatiladi. Biz Web sahifaning ayrim elementlarini sinflarga bo'lamiz, keyinchalik sinfni tasvirlash qoidalari yozuvini bir joydan o'zgartirishimiz mumkin va bu o'zgartirish avtomatik ravishda shu sinfga kirgan barcha teglarga tarqaladi.

HTML hujjatini tashkil etuvchi barcha elementlar ikki turga bo'linadi: *inline* elementlar va *blokli* elementlar. Inline elementlar oddiy matn elementlari bo'lib satr qismi ham bo'lishi mumkin, blokli elementlar esa har safar yangi satrdan boshlanishi shart. Blokli elementlar boshqa blokli elementlar va Inline elementlaridan tashkil topishi mumkin, lekin Inline elementlar blokli elementlarni o'z ichiga olmaydi. Web sahifa elementlarini bloklarga birlashtirish ularga birvarakayiga shakl berish imkonini beradi, yani, birlashtiruvchi yagona tegni aniqlab blok joylashuvini o'zgartirish mumkin. Tabiiyki bu Web sahifa elementlarining har birining joylashuvini alohida o'zgartirishdan oson.

Blokli tip elementlarini birlashtirish uchun `<div>` va `</div>` teglari qo'llaniladi. Inline elementlari esa `` va `` teglari orqali birlashtiriladi. Yuqorida aytilganlarga asosan `<div>` tegi `` tegi ichida joylasha olmaydi.

Misol 3_6:

```
<html>
  <head>
    <title>div blokni hosil qilish</title>
  </head>
  <body>
    <div>
      Mening bu <div> sahifamga kiruvchilarga </div> alangali salom
    </div>
  </body>
</html>
```




Rasm 3_6

`` va `<div>` teglari qoʻshimcha parametrlarni ham oʻz ichiga olishi mumkin. Bizga malum boʻlgan *id* va *class* parametrlaridan tashqari *style* va *align* parametrlari ham ishlatiladi. *style* parametri shu blokdagi malumot stilini oʻrnatadi, *align* parametri shu malumotni qanday tekislashni aniqlaydi. HTML hujjatida sarlavhaning oʻz teglari mavjud boʻlib, ular oltitadir. Eng yuqori darajasi bu birinchi darajali sarlavha `<h1>` va `</h1>` teglari orqali, ikkinchi darajali sarlavha `<h2>` va `</h2>` teglari orqali va oxirgi oltinchi darajali sarlavha `<h6>` va `</h6>` teglari orqali ifodalanadi. Quyidagi misolda biz sarlavhalar tasvirini koʻramiz:

Misol 3_7:

```
<html>
  <head>
    <title>Sarlavhalarni tasvirlash</title>
  </head>
  <body>
    <h1>Birinchi darajali sarlavha</h1>
    <h2>Ikkinchi darajali sarlavha</h2>
    <h3>Uchinchi darajali sarlavha</h3>
    <h4>Toʻrtinchi darajali sarlavha</h4>
    <h5>Beshinchi darajali sarlavha</h5>
    <h6>Oltinchi darajali sarlavha</h6>
    <p>Oddiy matn</p>
  </body>
</html>
```



Rasm 3_7

Sarlavha teglari `` va `<div>` teglari kabi *id*, *class*, *style*, *align* parametrlarini o'z ichiga oladi.

3.4. Ishlatiladigan belgilar.

Kompyuterda har bir belgi qandaydir sondan iboratdir. Operasion sistema har bir songa mos keluvchi belgini ekranda tasvirleydi. Sonlarga mos keluvchi belgilar jadvali kodirovka (kodlash) deyiladi. Hozirning o'zida rus tili belgilari uchun kamida 5 ta kodlash usullari mavjud. Agar Web sahifa yaratilayotganda qaysi kodlash usulidan foydalanilganni brauzer aniqlay olmasa, ekranda tushunarsiz belgilar paydo bo'ladi. HTML tili Web sahifa qaysi usulda kodlanganini ko'rsatib turish imkoniyatiga ega. Buning uchun `<meta>` tegi ishlatiladi.

HTTP protokolida (bayonnomasida) oldindan aniqlangan *Content-Type* nomli o'zgaruvchi mavjud. U o'zida Web sahifa tilini va kodlash usulini saqlaydi. Umumiy ko'rinish quyidagicha bo'ladi:

```
<META http-equiv = "Content-Type" content = "text/HTML; charset=ISO-8858-5">
```

Yuqoridagi misolda o'zgaruvchining qiymati “;” belgi bilan ajratilgan ikki qismdan iborat. Birinchi qism matnning HTML teglari yordamida yaratilgan oddiy matn ekanligini bildirsa ikkinchi qism foydalanilgan kodlash usulini ko'rsatib turadi. Yuqoridagi misolda xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan tasdiqlangan standart kodlash usuli ko'rsatilgan. Afsuski brauzerlar matnda uchraydigan ba'zi bir belgilarni ekranda aks ettira olmaydi. Agar brauzer matnda “kichik” tengsizlik belgisini uchratsa uni teg uchun ochiluvchi qavs deb tushunadi. Matnda bu belgidan keyin hech qanday teg uchramasa matnning biror bir qismi e'tiborsiz qoldiriladi va ekranda aks ettirilmaydi. Bunday xatoliklarning oldini olish uchun matnda bunday belgilar o'rniga qo'shtirnoq ichiga olingan maxsus belgilar ketma – ketligi qo'llaniladi. Bunday belgilar ketma–ketligi albatta

qo'shtirnoq ichiga olingan bo'ladi va "&" belgisi bilan boshlanib ";" belgisi bilan tugaydi.

< <
> >
& &
" "
- &emdash

Bu belgilar xaqida to'liq ma'lumotlarni <http://www.uni-passau.de/~ramch/iso8859-1.html> manzilidan olish mumkin.

[http://www.uni-](http://www.uni-passau.de/~ramch/iso8859-1.html)

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

- 1.HTML tilida izox berish qanday amalga oshiriladi.
- 2.Sarlavxa necha qismdan tashkil topadi.
- 3.Saxifaning asosiy qismi qaysi teg orasida joylashadi.
- 4.<body> tegining qo'shimcha parametrlarini ayting.
- 5.Metama'lumot deganda nimani tushunasiz.
6. <META> teglari ning ishlatilishi jarayonini tushuntirib bering.

1.3.2-b. Blis-so'rov uchun savollar

- 1.<META> tegining parametrlarini tushuntirib bering.
- 2.Nima uchun tegga identifikator beriladi.
3. Blok turidagi elementlarni birlashtirish uchun qaysi teglar ishlatiladi.
- 4.Sarlavxalarning tasvirlanish teglari ni tushuntirib bering.
6. <body> tegining parametrlarini tushuntirib bering.
- 7..HTML tilida saxifaning qaysi versiyada yozilganligi xaqida ma'lumot qanday beriladi

1.3.2-v. Og'zaki so'rov uchun savollar

- 1.HTML tilida izox berish qanday amalga oshiriladi.

- 2.Sarlavxa necha qismdan tashkil topadi.
- 3.Saxifaning asosiy qismi qaysi teg orasida joylashadi.
- 4.<body> tegining qo'shimcha parametrlarini ayting.
- 5.Metama'lumot deganda nimani tushunasiz.
6. <META> teglari ning ishlatilishi jarayonini tushuntirib bering.
- 7.<META> tegining parametrlarini tushuntirib bering.
- 8.Nima uchun tegga identifikator beriladi.
9. Blok turidagi elementlarni birlashtirish uchun qaysi teglar ishlatiladi.
- 10.Sarlavxalarning tasvirlanish teglari ni tushuntirib bering.
11. <body> tegining parametrlarini tushuntirib bering.
- 12.HTML tilida saxifaning qaysi versiyada yozilganligi xaqida ma'lumot qanday beriladi

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

ma'lumot beradi. Yuqoridagi misolda biz *cols* parametrini ikkita qiymati bilan ishlatdik. Bu qiymatda birinchi freym uchun 150 piksel joy ikkinchi freym uchun esa qolgan joyning hammasi ishlatilishi ko'rsatilgan. Misolda ko'rganimizdek `<frame>` teglari har bir freymni alohida e'lon qiladi va ularning xossalarini ko'rsatadi. Misolimizda biz qiymat sifatida html hujjatning manzilini qabul kiluvchi *src* paramerini ishlatdik. Bundan tashqari biz `<noframes>` va `</noframes>` teglarini ham ishlatdik. Bu teglar orasida yozilgan ma'lumot brauzer tomonidan freym texnologiyasi tushunilmagan holatda ekranda paydo bo'ladi. Berilgan o'lchamda bo'lingan freymlar chegarasini foydalanuchi tomonidan o'zgartirish imkoniyati mavjud. Buning uchun *splitter* deb nomlanuvchi chegara chizig'idan sichqoncha ko'rsatkichi bilan ushlab surish kifoya. Asosiy brauzer oynasini bitta ustunda joylashgan ikkita freym va qolgan joyni egallovchi uchinchi freym ko'rinishida bo'lishimiz uchun kuydagi html kodni yozishimiz kerak.

Misol 9_2

```
<html>
<head><title>uchta freym</title></head>
<frameset cols="20%,*">
<frameset rows="*,*">
<frame src="9_1_1.htm">
<frame src="9_1_2.htm">
</frameset>
<frame src="9_1_3.htm">
</frameset>
</html>
```



9.2. Frame tegi va uning parametrlari.


`<frame>` tegi alohida freymlar xossalarini o'rnatish uchun ishlatiladi. Endi biz `<frame>` tegida ishlatiladigan parametrlar bilan tanishib chiqamiz.

- *name* parametri freymning nomini ko'rsatishda ishlatiladi, buni *id* parametri bilan almashtirmaslik kerak. *pame* parametri yordamida berilgan nom o'zak freymdan tashqarida joylashgan boshqa bir hujjatni yuklaganda teglarda giper murojaat sifatida ishlatiladi.
- *src* parametri freymda tasvirlanishi kerak bo'lgan HTML hujjatning URL ini berishda ishlatiladi.
- *frameborder* parametri freym chegara hoshiyalarining bo'lish yoki bo'lmasligini ko'rsatadi. Parametr qiymati 0 yoki 1 sonlari bo'lishi mumkin. Jimlik bo'yicha parametr 1 qiymat qabul qiladi va freym chegara hoshiyasi ko'rinuvchi bo'ladi. Agar qiymat 0 freym chegarasi hoshiyasi ko'rinmaydi.
- *marginwidth* parametri freymning gorizontaal bo'yicha o'lchamini piksellarda beradi.
- *marginheight* parametri freymning vertikal bo'yicha o'lchamini piksellarda beradi.
- *noresize* parametri freym o'lchamlarining o'zgarmasligini ta'minlaydi. Agar biz bu parametрни qo'llasak foydalanuvchi tomonidan freym chegaralarini o'zgartirish imkoni bo'lmaydi. Bu parametrdagi qiymat yo'q.
- *scrolling* parametri foydalanuvchiga freymdagi o'tkazish yo'lakchasi (lineyka prokrutki)ni boshqarish imkonini beradi. Qiymat sifatida quyidagi *auto*, *yes*, *no* kalit so'zlaridan bittasini qabul qiladi. Jimlik bo'yicha *auto* qiymati qabul qilingan bo'ladi, bu esa freymdagi ma'lumotlar tasvirlanish sohasiga joylashmagan vaqtda utkazish yulakchasi paydo bo'lishini bildiradi. *yes* qiymati esa freymdagi ma'lumot tasvirlanish sohasiga sig'ishi yoki sig'masligidan qat'iy nazar o'tkazish yo'lakchasi doimo chiqib turishini bildiradi. *no* qiymati esa freymda o'tkazish yo'lakchasining chiqishini umuman taqiqlaydi.

Biz yuqoridagi misollarimizda freymlar brauzer oynasini alohida bo'laklarga to'liq bo'lganini ko'rdik. Lekin freymning shunday turi ham mavjudki, ularni HTML hujjatga xuddi grafik tasvir joylashtirganday joylashtirish mumkin. Bunday turdagi freym larni HTML hujjatga joylash uchun `<iframe>` tegi ishlatiladi. Grafik obyekt joylashtirish tegidan farqli ravishda bu teg o'zining yopiluvchi `</iframe>` tegiga ega.

Misol 9_3:

```
<html>
<head><title>Freymlar</title>
</head>
<body>
<p>Matn va <iframe src="9_3.htm"></iframe>freym</p>
</body>
</html>
```



1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Saxifalarda freym tushunchasi.
2. Freymlar yaratishda ishlatiladigan teglar va parametrlari
3. Freymlarda aylantirish yo'lakchalari yaratish vositalari.
4. Freymlarga rang berish.
5. Freymlarda chegara chiziqlar qo'yish..

1.3.2-b. Blis-so'rov uchun savollar

1. Freym tegining asosiy parametrlarini ishlash jarayoni.
2. Freymning gorizontal bo'yicha o'lchamini qaysi parametr belgilaydi.
3. Freymning vertikal bo'yicha o'lchamini qaysi parametr belgilaydi.
4. Saxifa oynasini bir nechta freymlarga bo'lish.

1.3.2-v. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. Saxifalarda freym tushunchasi.
2. Freymlar yaratishda ishlatiladigan teglar va parametrlari
3. Freymlarda aylantirish yo'lakchalari yaratish vositalari.
4. Freymlarga rang berish.
5. Freymlarda chegara chiziqlar qo'yish..
6. Freym tegining asosiy parametrlarini ishlash jarayoni.
7. Freymning gorizontal bo'yicha o'lchamini qaysi parametr belgilaydi.
8. Freymning vertikal bo'yicha o'lchamini qaysi parametr belgilaydi.
9. Saxifa oynasini bir nechta freymlarga bo'lish.

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Saxifalarda freym yaratishni to'liq o'zlashtirib olish.
2. <frame> tegi va uning parametrlarini o'rganib chikish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1. Bitta oynani bir necha bo'laklarga bo'lish qaysi teg orqali amalga oshiriladi.
A) <frame>
B)
S) <col>
D) <colgroup>
2. Freym oynasini gorizontal soni va o'lchami qaysi parametr orqali qo'yiladi.
A) cols
B) cellspacing
C) <table>
D) <th>
3. Freym oynasida vertikal bo'yicha soni va o'lchami qaysi parametr orqali qo'yiadi.
A) rows
B) colspan
S) <tr>
D) <border>
4. Brauzerga oynani freymlarga ajratish xaqida ma'lumotni qaysi teg beradi.
A) <frameset>
B) <valign>
C) <border>
D) <colspan>
5. Freymda o'tkazish yo'lakchasini boshqarish imkonini qaysi parametr beradi.
A) scrolling
B) tcolor
C) border color
D) align

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko'rsatish(slaydlar)

Prezentasiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Matrosov S.Ch. i dr. HTML 4.0 v podlinnikе. BHV-SPb, 2000. 672 s.
2. Uilton P. JAVASCRIPT. Osnovy. Simvol-plyus. 2002. 1056 s.
3. Kingli-Xyu E., Kingli-Xyu K. JAVASCRIPT 1.5: Uchebnyy kurs. Piter. 1-ye izdaniye. 2002.

4. Tomson L., Velling L. Razrabotka Web-prilozheniy na PHP i MySQL. - K.: "DiaSoft", 2001. - 672 s.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Speynauer S., Kuersia V. Spravochnik Web-mastera. - K: "BHV", 1997. - 368 s.
6. Brandenbau. JAVASCRIPT. Sbornik reseptov dlya professionalov. SPb. 2001.
7. Ratshiller T., Gerken T. PHP4: razrabotka Web-prilozheniy. Piter, 2001. - 384 s.
8. Yarger R., Riz Dj., King T. MySQL i mSQL. Bazy dannykh dlya nebolshix predpriyatiy i Interneta. - SPb: Simvol-Plyus, 2000 - 560 s.
9. Xilayer S., Mizik D. Programmirovaniye Active Server Pages. - M: "Russkaya redaktsiya", 1999. - 296 s.
10. Xolzner S. Perl: spetsialnyy spravochnik. - SPb: "Piter". 2000. - 496 s.
11. Shvars R., Kristiansen T. Izuchayem Perl. - K: "BHV", 2000

1.7. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hyech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhilda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kelayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
Agar «→» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;

Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma'lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmat ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok yetishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 10: FORMALAR

Ma'ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: WYeV ga yo'naltirilgan dasturlash.

O'quv soatii: 4 soat (ma'ruza);

O'quv mashg'ulotlari turi: ma'ruza; yangi mashg'ulotlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ish rejasi:

1. Formalar xaqida umumiy ma'lumot.
2. <form> </form> teglari.
3. Ma'lumotlarni kiritish *INPUT* elementi
4. *BUTTON* tugmasi
5. Ko'p satrli mantli maydon. *TEXTAREA* elementi.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

Talabalarga web saxifalarda formalar yaratish, formalarda tugmachalar yaratish, menyular yaratish, matn kiritish maydonini yaratish, formalar yaratishda ishlatiladigan teglar va parametryrlar, boshqariladiga elementlar guruxini yaratish tushunchalari xaqida ma'lumot berish.

O'quv mashg'ulotining vazifalari:

- *O'rgatuvchi:* talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich yesda qoldirish va anglash; terminlar, iboralarni xarakterlovchi elementlar; talabalarning firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish;
- *rivojlantiruvchi:* kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari:* instruktaj; Ma'ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari:* frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari:* Ma'ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari:* texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring:* o'g'zaki savol-javob, blis-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya yetiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma'ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma'ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakllanadi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma'ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xarakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta'riflarini beradi,
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralar bilan ishlay olishligi;

• 1.2. Ma'ruzaning xronologik xaritasi

• 1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati:* tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma'ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati:* o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma'ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar:* instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati:* mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini yeslashga chorlaydi; ma'ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif yetadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif yetadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushuntirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati:* yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni yeshitib, yozib

borib, konspekt qilib aytib borishadi; “Insert” usuli bilan belgilan o’qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o’zaro;

- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so’rov blis-so’rov; aqliy hujum, “Insert” texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O’qituvchining faoliyati*: mnavzu bo’yicha hulosa qilish, talabalarning ye`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o’tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o’zaro baholashning natijalarini chiqarish; o’quv mashg’ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko’rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati*: *ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo’llash; o’zaro baholashni o’tkazish, yo’l qo’yilgan hatolar bo’yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O’quv-metodik materiallar

Ma’ruza rejasi:

1. Formalar xaqida umumiy ma’lumot.
2. `<form>` `</form>` teglari.
3. Ma’lumotlarni kiritish *INPUT* elementi
4. *BUTTON* tugmasi
5. Ko’p satrli mantli maydon. *TEXTAREA* elementi.

Kalit so’zlar: forma, tugmalar, bayroqchalar, ulagichlar, fayl selektori, ko’p satrli maydon.

1.3.1. Ma’ruza matni

10.1. Formalar haqida umumiy ma’lumot

HTML formalar, foydalanuvchilar tomonidan, ma’lumotlarni kiritish va kiritilgan ma’lumotlardan keyinchalik foydalanish maqsadida tashkil qilingan. Formalar – matnli oynalar, tugmalar, bayroqchalar, ulagich(pereklyuchatel)lar va menyular kabi boshqariladigan elementlardan tashkil topishi mumkin. Formalar `<form>` va `</form>` teglari orasida joylashadi.

Ba’zi xollarda foydalanuvchi bilan brauzer o’rtasida aktiv muloqat qilishga to’g’ri keladi, ya’ni ma’lumotlarni kiritishga va tahrir qilishga to’g’ri keladi. Bunday hollarda biz yuqorida aytganimizdek HTML hujjatning formalar deb ataluvchi bo’limidan foydalanamiz. Foydalanuvchi yuqorida ko’rsatilgan formalarni ma’lumotlar bilan to’ldiradi va uni qayta ishlash uchun serverga

jo'natadi. Server bu odatda Web-server yoki elektron pochta serveri bo'lishi mumkin.

Shunday qilib har qanday formaning asosiy qismi bo'lib uning boshqariladigan elementlari hisoblanadi. Bu elementlarning har biri o'z nomiga ega va bundan tashqari bu elementlar o'zining boshlang'ich qiymatiga hamda joriy qiymatiga ega.

Elementning boshlang'ich qiymati uning birinchi hosil qilinishida yoki uning qaytadan o'rnatilishida (inializasiya) ekranda tasvirlanadi. Keyinchalik foydalanuvchi bu qiymatlarni o'zgartirishi mumkin. Foydalanuvchi tomonidan to'ldirilgan formaning qiymatlari «nom=qiymat» juftlik ko'rinishida qayta ishlanish uchun jo'natiladi.

HTML formalar quyidagi boshqariladigan elementlardan foydalanadi:

Tugmalar (*buttons*)

Uchta turdagi tagmalar mavjud:

- Jo'natuvchi tugmalar – bu tugmalar yordamida formalar serverga qayta ishlash uchun jo'natiladi.
- Inkor etuvchi tugmalar – bu tugma bosilsa formaning hamma qiymatlari qaytadan boshlang'ich xolatiga o'rnatiladi.
- Umumiy tugmalar – bunday turdagi tugmani bosganda shu tugmaga bog'langan prosedura ishga tushadi.

Bayroqchalar (*checkboxes*)

Bayroqcha – bu ikkita (tanlangan yoki tanlanmagan) holatga ega bo'ladigan element. Bayroqchalar *input* elementi yordamida hosil qilinadi.

Ulagichlar (*radiobuttons*)

Ulagichlar ham bayroqchalarga o'xshaydi, ammo bitta farqi shundaki hamma elementlari bitta nomga ega bo'ladi va shulardan bittasi tanlanadi. Ulagichlar ham *input* yordamida tashkil qilinadi.

Menyular (*menus*)

Menyu foydalanuvchiga bir nechta variantlardan bir yoki bir nechtasini tanlash imkoniyatini yaratadi. Menyu *selest* elementi yordamida *optgroup* va *option* lar bilan birgalikda tashkil qilinadi.

Matn kiritish maydoni (*text input*)

Matnni foydalanuvchi tomonidan kiritilishini amalga oshiruvchi ikkita element mavjud. *input* elementi bitta qatorli kiritishni ta'minlaydi. *textarea* – ko'pqatorli kiritishni amalga oshirish uchun ishlatiladi.

Fayl selektori (*file selest*)

Bu element yordamida biz serverga yuboradigan faylni tanlaymiz. Fayl selektori ham *input* elementi yordamida amalga oshiriladi.

10.2. <form> </form> teglari

Formalar tashkil qilish *form* elementi yordamida amalga oshiriladi va biz uning umumiy ko'rinishi bilan tanishib chiqamiz.

Umumiy ko'rinishi:

Sintaksis : <FORM>... </FORM> (Blokli element)

Atributlar: *id, class, style, title, lang, dir, xodisa*

action = URL (formalarni qayta ishlash uchun ko'rsatilgan URL manzil)

method = *GET* / *POST* (formalardagi ma'lumotlarni jo'natish uchun HTTP metodi)

enctype = fayl tipi(formaga murojat qilish uchun)

accept = fayllar tiplari (bo'lishi mumkin bo'lgan fayllar tiplari)

accept-charset = kodlashtirishlar (bo'lishi mumkin bo'lgan simvollarni kodlash usullari)

name = CDATA (ssenariya uchun forma nomi)


target = freym (natijalarni hosil qilish uchun freym)

onsubmit = ssenariya (formani jo'natish)

onreset = ssenariya (formani qaytadan o'rnatish)

Misol 10_1.

```
<html>
<head>
  <title>Formalarga doir misol</title>
</head>
<body>
<form action="http://maks//cgi/person.exe" method="post">
<p>
<label for="firstname"> ism: </label>
<input type="text" id="firstname">
<br>
<label for="lastname"> familiya: </label>
<input type="text" id="lastname">
<br>
<label for="email"> e-mail: </label>
<input type="text" id="mail">
<br>
<input type="radio" name="sex" value="male" checked="checked "> erkak
<br>
<input type="radio" name="sex" value="femole"> ayol <br>
<input type="submit" value="send">
<input type="reset" value="Reset">
</p>
</form>
</body>
</html>
```



10.3. Ma'lumotlarni kiritish *INPUT* elementi

Umumiy ko'rinishi:

Sintaksis: <INPUT> (Yopiluvchi tegi yo'q)

Atributlari: id, class, style, title, lang, dir, hodisa

type = TEXT | PASSWORD | CHECKBOX | RADIO | SUBMIT | RESET | FILE | HIDDEN | IMAGE | BUTTON (Kiritish turi)

name = CDATA (Element nomi)

value = CDATA (Elementning boshlang'ich qiymati)

checked = CHECKED (Bayroqchalar va ulagichlarning tanlanganlik holati)

readonly = READONLY (Matn va parol uchun faqat ukish uchun)

disabled = DISABLED (Element taqiqlangan)

size = CDATA (Elementning boshlang'ich kengligi)

maxlength = son (Matndagi maksimal simvollar soni)

src = URI (URI (Universal Resource Identifier) Tugmaning grafik shakli)

alt = tekst (Tugma uchun alternativ matn)

usemap = URI (URI murojaatlarning mijoz kartasi)

ismap = ISMAP (murojaatlarning server kartasi)

accesskey = simvol (Tez murojaat uchun tugma nomi)

tabindex = son (Tab tugmasi bilan borish uchun tartib raqami)

accept = fayllar tiplari (Mumkin bo'lgan fayllar tiplari)

onfocus = ssenariya (Element fokuslanganda yuz beradi)

onblur = ssenariya (Element fokusi yo'qolganda sodir bo'ladi)

onselect = ssenariya (Element matni tanlanganda)

onchange = ssenariya (Element qiymati o'zgarganda)

text – birqatorli kiritish maydoni. *value* – bu parametrga maydoning boshlang'ich qiymati beriladi. *size* – maydoning o'lchami. *maxlength* – bir maydondagi mumkin bo'lgan simvollar soni. *readonly* – matnni o'zgartirishni taqiqlaydi.

password – parolni kiritish maydoni, bu maydoning matni kiritish maydonidan farqi shundaki bu yerda kiritilayotgan simvollar * bilan almashtiriladi va qaysi belgilar kiritilayotganligi ekranda ko'rinmaydi. Ammo kiritilgan matn serverga hech qanday kodlanmasdan oddiy matn ko'rinishida yuboriladi, shuning uchun bu element yordamida mahfiy ma'lumotlarni (kredit kartochka nomerlari) yuborish tavsiya qilinmaydi.

checkbox – bayroqcha *Value* ga tanlangan element qiymati yuboriladi.

radio – ulagich. *Value* ning qiymati tanlangan element qiymatiga teng bo'ladi.

reset – formaning bekor tugmasi. Bu tugma bosilsa formadagi hamma qiymatlar boshlang'ich qiymatga qaytariladi.

submit – formaning jo'natish tugmasi. Bu tugma bosilsa formadagi qiymatlar serverga "*value=qiymat*" ko'rinishida jo'natiladi. Agarda bitta formada bar nechta shunday (*submit*) tugma bo'lsa unda ularga name atributi yordamida nom berish kerak. Chunki jo'natilgan ma'lumotlarni qayta ishlovchi dastur qaysi tugma bosilganini aniqlab olishi lozim.

image – formani jo'natishning grafik tugmasi. Bu yerda *src* atributi yordamida grafik tasvirning manzili beriladi, *alt* yordamida esa tugmaning alternativ matni o'rnatiladi. Grafik tugmaning sichqoncha bosilgan joyining koordinatalari serverga *name.x* va *name.y* o'zgaruvchilar yordamida jo'natiladi, bu yerda *name* tugma nomi.

button – umumiy turdagi tugma. *value* atributiga tugma matni beriladi. *onclick* atributiga tugma bosilganda ishlashi kerak bo'lgan ssenariy beriladi.

10.4. BUTTON tugmasi

Sintaksis: <BUTTON>...</BUTTON> (Matnli element)

Atributlar: *id, class, style, title, lang, dir, hodisa*

type = SUBMIT | RESET | BUTTON (Kiritish turi)

name = CDATA (Element nomi)

value = CDATA (Tugmaning boshlang'ich qiymati)

disabled = DISABLED (Element taqiqlangan)

accesskey = *simvol* (Tez murojaat uchun tugma nomi)

tabindex = *son* (Tab tugmasi bilan borish uchun tartib raqami)

onfocus = *ssenariya* (Element fokuslanganda yuz beradi)

onblur = *ssenariya* (Element fokusi yo'qolganda sodir bo'ladi)

Bunday element yordamida qosil qilingan tugmalar *input* elementi yordamida hosil qilingan tugmaga o'xshaydi lekin uning o'z tashkil etuvchilari bor. Bu yerda *name* atributi yordamida tugma nomi beriladi. *value* bilan uning boshlang'ich qiymati, *type* yordamida esa tugma turi aniqlanadi.

submit – formani jo'natish tugmasi (jimlik bo'yicha qabul qilingan).

reset – formani bekor qilish.

button – umumiy ko'rinishdagi tugma.

disabled – bu atribut tugmani aktiv bo'lishini taqiqlaydi. Bu degani shu element fokusga olinmaydi.


accesskey – yordamida tugmaga tezda murojaat qilish uchun klaviaturadagi biror tugmaning *unicode* dagi simvoli beriladi.

Misol: 10_2.

```

<html>
<head>
    <title> Button ga misol</title>
</head>
<body>
<form action="http://maks//cgi/person.exe" method="post">
<p>
<label for="firstname"> ism: </label>
<input type="text" id="firstname">
<br>
<label for="lastname"> familiya: </label>
<input type="text" id="lastname">
<br>
<label for="email"> e-mail: </label>
<input type="text" id="mail">
<br>
<input type="radio" name="sex" value="male" checked="checked " > erkak
<br>
<input type="radio" name="sex" value="femole"> ayol <br>
<button name="submit" value="submit" type="submit">
Jo'natish </ button>
<button name="reset" type="reset"> bekor qilish </ button>
</p>
</form>
</body>
</html>

```



Menyular. SELECT, OPTGRUOP va OPTION

Sintaksis: <SELECT>...</SELECT> (Matnli element)

Atributlar: *id, class, style, title, lang, dir, hodisa*

name = CDATA (Element nomi)

size = (Ko'rinadigan opsiyalar soni)

multiple = MULTIPLE (Kup opsiyalarni tanlash)

disabled = DISABLED (Element taqiqlangan)

tabindex = *son* (Tab tugmasi bilan borish uchun tartib raqami)

onfocus = *ssenariya* (Element fokuslanganda yuz beradi)

onblur = *ssenariya* (Element fokusi yo'qolganda sodir bo'ladi)

onchange = *ssenariya* (Element qiymati o'zgarganda)

select elementi yordamida ro'yxatdan biror opsiyani tanlash imkoniyatini yaratadi. Odatda bu element yordamida ochiluvchi menyular tuziladi va menyuning opsiyalari (punktlari) *optgruop* va *option* lar yordamida aniqlanadi. *name* atributi yordamida elementning nomi beriladi, *size* atributi esa ekranda hosil qilinadigan opsiyalar sonini aniqlaydi, agar opsiyalar *size* da ko'rsatilgan sondan katta bo'lsa, u holda brauzer o'tkazish yo'lakchasi (prokrutka)ni hosil qiladi.

Jimlik bo'yicha foydalanuvchi ro'yxatda ko'rsatilgan opsiyalardan faqat bit-tasini tanlashi mumkin, agar bir vaqtning o'zida bir nechta opsiyani tanlash kerak bo'lsa, u holda *multiple* atributi bilan buni amalga oshirish mumkin. Bu holda har bir tanlangan opsiya *name=value* ko'rinishida alohida jo'natiladi. *disabled* atributi yordamida biz elementni aktivlashtirmaymiz, ammo hosil qilib qo'yishimiz mumkin. *tabindex* ning qiymati 0 dan 32767 gacha bo'lgan butun sonlar bo'lishi mumkin. Bu qiymat bilan biz Web sahifa bo'ylab Tab tugmasi yordamida harakatlanganda fokusning hosil bo'lish nomerini aniqlaymiz. Agar biror elementning *Tabindex* qiymati 0 ga teng yoki berilmagan bo'lsa, u holda bu element boshqa elementlar *Tabindex* ning qiymati aniqlangandan (musbat sonlar bilan) keyin fokuslanadi. Agar bir nechta elementlarning *Tabindex* larining qiymatlari bir xil bo'lsa u holda birinchi uchragani fokuslanadi.

onfokus - element fokuslanganda hosil bo'ladigan hodisa

onblur - element fokusini yo'qotganda yuz beradigan hodisa

onchange - elementning qiymati o'zgarganda yuz beradigan hodisa

Sintaksis: <OPTGROUP>...</OPTGROUP> (Matnli element)

Atributlar: *id, class, style, title, lang, dir, hodisa*

label = matn (opsiyalar gruppasining belgisi)

disabled = DISABLED (Element taqiqlangan)

Sintaksis: <OPTION>...</OPTION> (Matnli element)

Atributlar: *id, class, style, title, lang, dir, hodisa*

value = CDATA (opsiya nomi)

label = matn (opsiya belgisi)

selected = SELECTED (opsiya tanlangan)


disabled = DISABLED (element taqiqlangan)

Misol: 10_3.

```

<html>
<head>
<title>Menyular </title>
</head>
<body>
<FORM action="http://maks/cgi-bin/Qunduz/php" method="post">
  <P>Siz qanday brauzerdan foydalanasiz?
  <SELECT name="browser">
    <OPTGROUP label="Netscape Navigator">
      <OPTION label="4.x yoki yuqori">Netscape Navigator4.x yoki
yuqori</OPTION>
      <OPTION label="3.x">Netscape Navigator 3.x</OPTION>
      <OPTION label="2.x">Netscape Navigator 2.x</OPTION>
      <OPTION label="1.x">Netscape Navigator 1.x</OPTION>
    </OPTGROUP>
    <OPTGROUP label="Microsoft Internet Explorer">
      <OPTION label="4.x yoki yuqori">Internet Explorer4.x yoki
yuqori</OPTION>
      <OPTION label="3.x">Internet Explorer 3.x</OPTION>
      <OPTION label="2.x">Internet Explorer 2.x</OPTION>
      <OPTION label="1.x">Internet Explorer 1.x</OPTION>
    </OPTGROUP>
    <OPTGROUP label="Opera">
      <OPTION label="3.x yoki yuqori">Opera 3.x yoki yuqori</OPTION>
      <OPTION label="2.x">Opera 2.x</OPTION>
    </OPTGROUP>
    <OPTION selected="selected">Boshqalaridan</OPTION>
  </SELECT>
  <INPUT type="submit" value="Send"> <INPUT type="reset">
  </P>
</FORM>
</body>
</html>

```

10.5. Ko'p satrli matnli maydon. TEXTAREA elementi.

Синтаксис: `<textarea>...</textarea>` (Matnli element)

Атрибутилар: *id, class, style, title, lang, dir, hodisa*

name = CDATA (Element nomi)

rows = son (Ko'rinadigan satrlar soni)

cols = son (Ko'rinadigan ustunlar soni)

readonly = READONLY (Faqat o'kish uchun)

disabled = DISABLED (Element taqiqlangan)

accesskey = *simvol* (Tez murojaat uchun tugma nomi)

tabindex = son (Tab tugmasi bilan borish uchun tartib raqami)

onfocus = *ssenariya* (Element fokuslanganda yuz beradi)

onblur = *ssenariya* (Element fokusi yo'qolganda sodir bo'ladi)

onselect = *ssenariya* (Matn elementi tanlanganda)

onchange = *ssenariya* (Element qiymati o'zgarganda)

textarea yordamida biz formalarga ko'p satrli matnlarni kirita olamiz. Forma serverga jo'natilgandan *name=value* ko'rinishida qiymatlar to'plamidan iborat bo'ladi. *value* bu foydalanuvchi tomonidan kiritilgan qiymat. *rows* va *cols* atributlar mos ravishda matn kiritiladigan oynaning satrlar va ustunlar sonini bildiradi. Agar kiritilgan matn oynaga sig'masa brauzer avtomatik ravishda (prokrutka) yo'lakcha hosil qiladi. Amaliyotda kiritiladigan matnning o'lchami 32 kv yoki 64 kv dan oshmasligi kerak. Shart bo'lmagan atribut *readonly* maydondagi matnни o'zgartirishni taqiqlaydi. *Disabled* atributi esa elementni faol (aktiv) holatini o'chiradi. Elementga tezda murojaat qilish uchun *accesskey* atributiga biror tugmaning *unicode* dagi simvolini berish kerak. *tabindex* yordamida esa Web sahifa bo'ylab Tab tugmasi yordamida harakatlanganda nechanchi o'rinda fokuslanish nomeri beriladi. Buning qiymati 0 dan 32767 gacha bo'lgan butun sonlar bo'lishi mumkin.

Boshqariladigan elementlar guruhi.

fieldset elementi formadagi elementlar guruhini aniqlaydi. Bu element yordamida formani bir nechta bo'laklarga ajratish mumkin. Bu esa foydalanuvchiga formani to'ldirishda qulaylik yaratadi. Element ochiluvchi *<fieldset>* va yopiluvchi *</fieldset>* teglariga ega.

fieldset elementining ichida joylashadigan *legend* tegi mavjud bu teg bilan elementlar guruhining sarlavhasi beriladi.


Misol: 10_4.

```
<html>
<head>
<title>Misol 10_4</title>
</head>
<body>
<FORM action=" http://maks/cgi-bin/Qunduz/php " method="post">
<P>
<FIELDSET>
<LEGEND>Shaxsiy ma'lumot</LEGEND>
Familiya: <INPUT name="personal_lastname" type="text" tabindex="1">
Ism: <INPUT name="personal_firstname" type="text" tabindex="2">
Manzil: <INPUT name="personal_address" type="text" tabindex="3">
</FIELDSET>
<FIELDSET>
<LEGEND>Kasallik tarixi</LEGEND>
<INPUT name="history_illness"
type="checkbox"
value="Smallpox" tabindex="20"> Ospa
<INPUT name="history_illness"
type="checkbox"
value="Mumps" tabindex="21"> Gripp
<INPUT name="history_illness"
type="checkbox"
value="Dizziness" tabindex="22"> Bosh aylanish
<INPUT name="history_illness"
type="checkbox"
value="Sneezing" tabindex="23"> Yutal
</FIELDSET>
<FIELDSET>
<LEGEND>Joriy muolaja</LEGEND>
Hozir qandaydir dori qabul kilayapsizmi?
<INPUT name="medication_now"
type="radio"
value="Yes" tabindex="35">Ha
<INPUT name="medication_now"
type="radio"
```

```

value="No" tabindex="35">Yo'q
<p> Hozirgi qabul qilayotgan dorilar ro'yxatini yozing:</p>
<TEXTAREA name="current_medication"
rows="10" cols="50"
tabindex="40">
</TEXTAREA>
</FIELDSET>
</P>
</FORM>
</body>
</html>

```



1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Formalar qaysi teglar orasida joylashadi.
2. Necha xildagi tugmalar mavjud.
3. Formalarda menyularni tashkil qilish.
4. Ko'p satri maydonlarni tashkil etish.
5. Boshqariladigan elementlar guruxini qaysi elementlar aniqlaydi.

1.3.2-b. Blis-so'rov uchun savollar

1. Formalar haqida umumiy ma'lumot.
2. <form> teglari va parametrlari.
3. Formalarda tugmalar yaratish.
4. Ma'lumotlarni kiritishda INPUT elementini ishlatilishi.

1.3.2-v. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. Formalar qaysi teglar orasida joylashadi.
2. Necha xildagi tugmalar mavjud.
3. Formalarda menyularni tashkil qilish.
4. Ko'p satrli maydonlarni tashkil etish.
5. Boshqariladigan elementlar guruxini qaysi elementlar aniqlaydi.
6. Formalar xaqida umumiy ma'lumot.
7. <form> teglari va parametrlari.
8. Formalarda tugmalar yaratish.
9. Ma'lumotlarni kiritishda INPUT elementini ishlatilishi.

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Saxifalarda formalar yaratishni to'liq o'zlashtirish.
2. Formalarda menyular, ulagichlar xosil qilish.
3. Foydalaniladigan elementlar guruxiga izox bering.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1. Formalar yaratishda qaysi teglardan foydalaniladi.
 - A) <form>
 - B)
 - S) <col>
 - D) <colgroup>
2. Necha turdagi tugmalar mavjud.
 - A) 3 ta
 - B) 5 ta
 - C) 6 ta
 - D) 2 ta
3. Ma'lumotlarni kiritishda qaysi elementdan foydalaniladi.
 - A) input
 - B) colspan
 - S) <tr>
 - D) <border>
4. Ko'p satrli maydon xosil ilishda qaysi elementdan foydalaniladi.
 - A) textarea
 - B) <valign>
 - C) <border>
 - D) <colspan>

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko'rsatish(slaydlar)

Prezentasiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Matrosov S. Ch. i dr. HTML 4.0 v podlinnikе. BHV-SPb, 2000. 672 s.
2. Uilton P. JAVASCRIPT. Основы. Simvol-plyus. 2002. 1056 s.
3. Kingli-Xyu E., Kingli-Xyu K. JAVASCRIPT 1.5: Uchebnyy kurs. Piter. 1-ye izdaniye. 2002.
4. Tomson L., Velling L. Razrabotka Web-prilojeniy na PHP i MySQL. - K.: "DiaSoft", 2001. - 672 s.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Speynauer S., Kuersia V. Spravochnik Web-mastera. - K: "BHV", 1997. - 368 s.
6. Brandenbau. JAVASCRIPT. Sbornik reseptov dlya professionalov. SPb. 2001.
7. Ratshiller T., Gerken T. PHP4: razrabotka Web-prilojeniy. Piter, 2001. - 384 s.
8. Yarger R., Riz Dj., King T. MySQL i mSQL. Bazy dannyx dlya nebolshix predpriyatiy i Interneta. - SPb: Simvol-Plyus, 2000 - 560 s.
9. Xilayer S., Mizik D. Programmirovaniye Active Server Pages. - M: "Russkaya redaksiya", 1999. - 296 s.
10. Xolzner S. Perl: spetsialnyy spravochnik. - SPb: "Piter". 2000. - 496 s.
11. Shvars R., Kristiansen T. Izuchayem Perl. - K: "BHV", 2000

1.8. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastik va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhilda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

- “Insert” texnikasi qoidalari
- Matndi o’qib, ularda savollat tug’dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kelayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo’yiladi;
- “Insert” jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to’ldirish:
- Agar «!» bo’lsa siz o’z bilimingizga yoki siz o’ylagan fikrga to’g’ri kelayotganini o’qiyapsiz;
- Agar «–» bo’lsa siz o’z bilimingizga yoki tyo’g’ri deb o’ylaganingizga mutlaqo zid bo’lganini o’qiyapsiz;
- Agar «+» bo’lsa siz o’qiyotganingiz siz uchun yangilik;
- Agar «?» bo’lsa, siz o’qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko’proq ma’lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o’z do’stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo’lib hurmar ko’rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o’ziga kerak paytda yordam so’rashi kerak;
- Har kim undan yordam so’ralganda yordam ko’rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok yetishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o’zgalarga yordam berib o’zimiz o’rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

HTML TILINING ASOSIY TEGHLARI

Asosiy teglar.

`<html></html>` Web sahifani ko'ruvchi dasturga bu hujjatning HTML hujjat ekanligini ko'rsatadi.

`<head></head>` Hujjatda tasvirlanmaydigan har xil ma'lumotlarning joylashish o'rnini ko'rsatadi. Bu yerda hujjatning nomlanish tegi va qidiruv mashinalari uchun teg joylashadi. Bundan tashqari JavaScript funksiyalari ham shu yerda joylashadi.

`<body></body>` hujjatning ko'rinuvchi ya'ni asosiy qismini bildiradi.

Sarlavha tegi.

`<title></title>` brauzer sarlavhasiga hujjat nomini joylashtiradi. **Hujjat asosiy qismining atributlari.**

`<body bgcolor=?>` RRGGBB ko'rinishida rang qiymatini qo'llab hujjat foni rangini o'rnatadi. Misol: FF0000 – qizil rang.

`<body text=?>` Rang qiymatini RRGGBB ko'rinishida qo'llab hujjatdagi matn rangini o'rnatadi. Misol: 000000 – qora rang.

`<body link=?>` Rang qiymatini RRGGBB ko'rinishida qo'llab hujjatdagi gipermurojaat rangini o'rnatadi. Misol: 00FF00 - yashil rang.

`<body vlink=?>` Rang qiymatini RRGGBB ko'rinishida qo'llab hujjatdagi foydalanilgan gipermurojaat rangini o'rnatadi.

Misol: 333333 – kulrang rang.

`<body alink=?>` Gipermurojaatning bosilayotgandagi rangini o'rnatadi.

Matnni formatlashda ishlatiladigan teglar.

`<pre></pre>` Oldindan formatlangan matnni tasvirleydi.

`<h1></h1>` ENG KATTA sarlavha hosil qiladi.

`<h6></h6>` eng kichik sarlavha hosil qiladi.

`` qalin shrift hosil qiladi.

`<i></i>` qiya shrift hosil qiladi.

`<tt></tt>` Yozuv mashinkasinikiga o'xshash shrift hosil qiladi.

`<cite></cite>` sitata uchun ishlatiladigan shrift hosil qiladi. Odatda qiya yozilgan shrift ishlatiladi.

`` matndagi so'zni alohida ajratib ko'rsatadi. (qiya yoki qalin matn)

`` matnning muhim qismlarini belgilashda ishlatiladi. (qiya yoki qalin matn).

`` 0 dan 7 gacha bo'lgan oraliqda matn o'lchamini o'rnatadi.

`` Rang qiymatini RRGGBB ko'rinishida qo'llab hujjatdagi matn rangini o'rnatadi.

Gipermurojaatlar.

`` Boshqa bir Web hujjatga yoki joriy hujjatning biror bir qismiga gipermurojaat hosil qiladi.

`` Elektron xat yozish uchun ishlatiladigan dasturga murojaatni hosil qiladi.

`` Hujjatdagi matn qismini gipermurojaat qilish maqsadida belgilaydi.

`` Joriy hujjatning qismiga gipermurojaat hosil qilish.

Formatlash.

`<p>` yangi abzas hosil qiladi.

`<p align=?>` *left*, *right*, yoki *center* qiymatlarni qo'llab abzasni tekislash.

`
` yangi satrdan boshlash.

`<blockquote></blockquote>` Matnning ikkala tomonidan bo'sh joy ajratadi.
`<dl></dl>` aniqlovchi ro'yxat hosil qiladi.

`<dt>` ro'yxatdagi har bir termini aniqlaydi.

`<dd>` ro'yxat bandiga izoh berish.

`` raqamli ro'yxat hosil qiladi.

`` ro'yxatdagi har bir elementni aniqlaydi va tartib raqam beradi.

`` raqamlanmagan ro'yxat beradi.

`` Ro'yxatdagi har bir elementni aniqlaydi.

`<div align=?>` HTML hujjatlarda matnli bloklarni formatlash.

Grafik elementlar.

`` HTML hujjatga grafik tasvir qo'shish.

`` *left*, *right*, *center*; *bottom*, *top*, *middle* qiymatlarini qo'llab tasvirni hujjatning biror tomoniga tekislash.

`` Tasvir atrofi ramkasi qalinligini o'rnatadi.

`<hr>` HTML hujjatga gorizontaal chiziq qo'shish.

`<hr size=?>` Chiziqning qalinligini o'rnatish.

`<hr width=?>` Chiziq enini piksel yoki prosentlarda o'rnatish.

`<hr noshade>` Chiziq soyasini yo'qotish.

`<hr color=?>` Chiziqqa ma'lum bir rang berish. Qiymati RRGGBB.

Jadvallar.

`<table></table>` jadval hosil qilish.

`<tr></tr>` jadvaldagi satrlarni aniqlash.

`<td></td>` jadvaldagi alohida yacheykani aniqlash.

`<th></th>` jadval sarlavhasini aniqlash.

Jadval atributlari

`<table border=#>` Jadval ramkasi qalinligini berish.

`<table cellspacing=#>` Jadval yacheykalari orasidagi masofani berish.

`<table cellpadding=#>` jadval qiymatlari va ramkasi orasidagi masofani berish.

`<table width=#>` jadval enini piksellarda yoki hujjat eniga nisbatan foizlarda berish.

`<tr align=?>` yoki `<td align=?>` *left*, *center*, yoki *right* qiymatlarini qo'llab jadvalda yacheykalarni tekislash.

`<tr valign=?>` yoki `<td valign=?>` *top*, *middle*, yoki *bottom* qiymatlarini qo'llab jadval yacheykalarini vertikal bo'yicha tekislash.

`<td colspan=#>` Bitta yacheykaga birlashgan ustunlar sonini ko'rsatish. (jimlik bo'yicha =1)

`<td rowspan=#>` Bitta yacheykaga birlashgan satrlar sonini ko'rsatish. (jimlik bo'yicha =1)

`<td nowrap>` brauzerga jadval yacheykasidagi satrni ko'chirishni taqiqlaydi.

Freymlar.

`<frameset></frameset>` Hujjatda freym yaratish.

`<frameset rows="value,value">` Freymning gorizontaal bo'yicha o'lchamlar nisbati.

`<frameset cols="value,value">` Freymning vertikal bo'yicha o'lchamlar nisbati.

`<frame>` Freymda hosil qilinadigan obyektini aniqlaydi.

`<noframes></noframes>` Bu teglar orasida yozilgan ma'lumot brauzer tomonidan freym texnologiyasi tushunilmagan holatda ekranda paydo bo'ladi.

Freym atributlari.

`<frame src="URL">` Freymda tasvirlanishi kerak bo'lgan HTML hujjatni aniqlash.

`<frame name="name">` Freym nomini aniqlash.

`<frame marginwidth=#>` freymning o'ng va chap tomonlaridan bo'sh joy qoldirish.

`<frame marginheight=#>` freymning yuqori va quyi tomonlaridan bo'sh joy qoldirish.

`<frame scrolling=VALUE>` foydalanuvchiga freymdagi o'tkazish yo'lakchasi (lineyka prokrutki)ni boshqarish imkonini berish.

`<frame noresize>` freym o'lchamlarining o'zgarmasligini ta'minlash.

Formalar.

`<form></form>` forma hosil qilish.

`<select multiple name="NAME" size=?></select>` Yo'lakchali menyu yaratish.

`<option>` menyuning har bir alohida elementini ko'rsatish.

`<select name="NAME"></select>` Yo'lakchasiz menyu yaratish.

`<textarea name="NAME" cols=40 rows=8></textarea>` Matn kiritish uchun ko'p satrli maydon yaratish

`<input type="checkbox" name="NAME">` Bayroqchalar (*checkboxes*) hosil qilish.

`<input type="radio" name="NAME" value="x">` Ulagich (*radio*) hosil qilish.

`<input type="text" name="foo" size=20>` matn kiritish uchun satr xosil qilish.

`<input type="submit" value="NAME">` "Qabul qilish" tugmasini hosil qilish.

`<input type="image" border=0 name="NAME" src="name.gif">` "Qabul qilish" tugmasi uchun tasvirdan foydalanish.

`<input type="reset">` "Bekor qilish" tugmasini hosil qilish.

Standart bayonnoma (protokol)lar nomlari		
Nomi	Mazmuni	IP porti
File	Server yoki mijozning diskli fayllari.	
ftp	Fayl jo'natish bayonnomasi (FTP, File Transfer Protocol)	20, 21
Gopher	Gopher va Gopher+ bayonnomalari	
http	Gipermatn jo'natish bayonnomasi (HTTP, HyperText Transfer Protocol)	80
mailto	Elektron pochta (SMTP, Simple Mail Transfer Protocol)	25

News	USENET yangiliklar guruhi	144
nntp	NNTP murojaati bilan USENET yangiliklar guruhi (Network News Transfer Protocol)	119
prospero	Prospero kataloglar xizmati	
telnet	TELNET interaktiv seanslari	23
wais	WAIS (Wide Area Information Servers) axborot tizimi	

Tashkilotlarning qayd qilingan tiplari	
com	Tijorat tashkilotlari
edu	Ta'lim muassasalari
int	Xalkaro tashkilotlar va ma'lumotlar bazasi
net	Tarmoq provayderlari kompyuterlari
org	Nodavlat va notijorat tashkilotlar
gov	AQSh hukumati tashkilotlari va muassasalari
mil	AQSh qurolli kuchlari

Amaliyot mashg'ulotlarining ishlanmalari

Mavzu 1. HTML da xujjatning strukturasi, sarlavxa elementlari, xujjat matn teglari, belgilashni boshqarish teglari, ro'yxatlar yaratish, gipermatnli ko'rsatkichlar

Amaliy mashg'ulotlar rejasi

Fan: “ Pedagogik Web dizayn“.

O'quv soati: 2 s. (amaliy)

O'quv mashg'ulotlar turi: kartochka, topshiriq, o'quv materiallar va metodik qullanma vositasi bilan amaliy mashg'ulotlar.

O'quv mashg'ulotlar rejasi:

- tarqatma materiallar tayyorlash.
- o'quv masalalari.
- Dasturlar tuzish.
- Yakuniy tahlil

O'quv mashg'ulotlar maqsadi:

WEB caxifa yaratish vositasi bilan nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan chuqurlashtirish

O'quv mashg'ulotlar vazifasi:

- *o'qituvchi:* mavzu bo'yicha olgan bilimlarni sistemalashtirish va mustahkamlash
- *rivojlantiruvchi:* o'rganish tajribasini oshirish, WEB saytlar yaratish nazariyasini o'rganish, analiz va o'rganish natijalarini umumlashtirish mahoratini rivojlantirish; student ijodiy mahoratini shakllantirish;
- *tarbiyaviy:* mustaqil izlanish mahoratini uyg'otish ; jamoa bilan ish yuritish qoidalariga bo'ysunish. Fanga qiziqishni rivojlantirish, ma'suliyatni his qilish , mehnasevarlik, individual ishni kollektiv bilan moslashni o'rgatish.

O'qitish texnologiyasi:

- *o'qitish metodlari:* individual savol-javob; birga o'qitish; o'quv qo'llanmalarga asoslanib dasturlar tuzish.
- *o'qitish shakllari:* individual, kollektiv.
- *o'qitish vositalari:* daftarda va dockada, kompyuterda dastur tuzish, metodik ishlanmalar va amaliy ko'rsatmalar
- *o'qitish shartlari:* auditoriya, kompyuter zali.
- *monitoring va baholash:* og'zaki nazorat, individual savol-javob , material tushuntirilishi, nazorat ishi.

Pedagogik masalalar :

- mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash uchun o'rganuvchilarni anglash faoliyatini tashkillashtirish

- namuna bo'yicha amaliyotda bilimlarni mustahkamlash;
- mustaqil dasturlashni o'rganishni shakllantirish;

O'quv faoliyati natijalari:

- kurs mavzulari bo'yicha bilimlarni sistemalashtirish va mustahkamlashtirish;
- o'rgangan tushunchalar bilan amaliy mashg'ulotlarda ishlay olish;
- dastur tuzishda terminologiyalarni va tushunchalarni qo'llashni mustaqil o'rganish mahorati;
- mustaqil dastur tuzish mahoratini oshirish;
- tajriba natijalarini analiz qila olish;

1.2 Amaliy mashg'ulotning xronologik xaritasi.

1 bosqich. O'quv mashg'ulotlarga kirish (10 daqiqa);

- *o'qituvchi faoliyati:* tayyorgarlikni tekshirish (konspektning mavjudligi; tayyorgarlik, qatiyatlik va aniqlik, davomat); zarur materillarni tarqatish (metodik qo'llanmalar, kartochkalar); amaliy darsning maqsadi va mavzuni aytish; o'quv darsining rejasi bilan tanishtirish, tushuncha va jumlar; adabiyotlar ruyxati; Reyting-kontrol sistemasi bilan tanishtirish; joriy nazorat baholash mezonlari; o'quv ishlari yakunlarining rejalarini taqdimlash;
- *talaba faoliyati:* o'quv joyini tayyorlash (o'quvchilarning borligi; tashqi ko'rinish; uquv va tarqatma materiallar); mavzu bilan tanishuv va o'quv dars maqsadi; o'quv materialni qabul qilishga tayyorgarlik;
- *qabul qilish shakli metodlari:* og'zaki nazorat, individual savol-javob; obyektlar bilan ishlash; konspektlash;

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa);

- *o'qituvchi faoliyati:* mavzuni kiritish, WEB dasturlashni o'rganish bilan bog'liq oldingi mavzuni eslashni taklif yetish; amaliy mashg'ulotlar matnini tarqatish; qo'shimcha adabiyotlarda tushunchalar berish; ish usullari bilan tanishtirish; mashg'ulotlar tarqatish; tushunarsiz savollarni aniqlab, ularni yechimi topishga yordamlash; gruppalarda ishlashni tashkillash; natijalarni muhokamalashtirish;

- *talaba faoliyati:* oldingi mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash; quloq solish, yozib olish; tushunchalar va terminlarni aytish; savol berishadi va muhokamalashtirishadi, aniqlashtirishadi; gruppalarda ishlashadi, olingan natijalar muhokamasiga qatnashishadi

- *qabul qilish shakli metodlari:* og'zaki nazorat, grupalarda individual savol-javob; tuzilgan dasturlarni daftarga yozib olish

3 bosqich. Yakuniy qism(10 daqiqa)

- *o'qituvchi faoliyati*: mavzu bo'yicha xulosa chiqarish; talabalarni fikrini bir joyga jamlash; qilingan ishlarning muhimligini aytib o'tish; javob bergan talabalarni ishini baholash; o'quv darsning maqsadiga erishish darajasini baholash va analizlashtirish; mustaqil ishlar topshiriqlari

- *talaba faoliyati*: ish analizi; yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash va analizlash; berilgan mustaqil ishlarni yozib olishadi;

- *qabul qilish shakli metodlari*: guruhda va individual ishlash; mustaqil ishlar uchun daftar tutish.

1.3 O'quv-uslubiy qo'llanma

O'quv mashg'ulotlar rejasi:

- metodik qullanmalar va topshiriqlar bilan ishlash
- Amaliy darslar uchun daftar tutish
- o'quv topshiriqlar
- amaliy ishlarni topshirish

1.3.1 Misol va mashqlar namoishi (prezentasiya)

1.Dastur tuzishda xujjatning strukturasiidan foydalanish.

2.Dastur tuzishda sarlavxa elementlaridan foydalanish.

3.Xujjat matn, belgilashni boshqarish, ro'yxat yaratish teglaridan foydalangan xolda dastur tuzish.

4.Dasturda gipermatnli murojaat tashkil etish.

1.3.2 O'quv mashqlar

- Teglardan foydalanish jarayonini o'rganing
- Teglardan foydalangan xolda dastur tuzing
- shu mavzuni nazariyasini o'qib oling

Uyga vazifa

1. Mavzuda o'tilgan teglar va parametrlardan foydalanib saxifa yarating.

1.3.3 Tavsiya yetiladigan adabiyotlar *Adabiyotlar ro'yxati*

Asosiy adabiyotlar

9. Matrosov S.Ch. i dr. HTML 4.0 v podlinnike. BHV-SPb, 2000. 672 s.
- 10.Uilton P. JAVASCRIPT. Основы. Simvol-plyus. 2002. 1056 s.
- 11.Kingli-Xyu E., Kingli-Xyu K. JAVASCRIPT 1.5: Uchebnyy kurs. Piter. 1-ye izdaniye. 2002.
- 12.Tomson L., Velling L. Razrabotka Web-prilojeniy na PHP i MySQL. - K.: "Di-aSoft", 2001. - 672 s.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 14.Speynauer S., Kuersia V. Spravochnik Web-mastera. - K: "BHV", 1997. - 368 s.
- 15.Brandenbau. JAVASCRIPT. Sbornik reseptov dlya professionalov. SPb. 2001.
- 16.Ratshiller T., Gerken T. PHP4: razrabotka Web-prilojeniy. Piter, 2001. - 384 s.
- 17.Yarger R., Riz Dj., King T. MySQL i mSQL. Bazy dannykh dlya nebolshix predpriyatiy i Interneta. - SPb: Simvol-Plyus, 2000 - 560 s.
- 18.Xilayer S., Mizik D. Programmirovaniye Active Server Pages. - M: "Russkaya redaksiya", 1999. - 296 s.
- 19.Xolzner S. Perl: spetsialnyy spravochnik. - SPb: "Piter". 2000. - 496 s.
- 20.Shvars R., Kristiansen T. Izuchayem Perl. - K: "BHV", 2000. - 320 s.

1.3.4 Mavzu bo'yicha yangi tushunchalar uchun savollar.

- 1.Saxifa yaratishda belgilashlar qanday boshqariladi.
- 2.Saxifa yaratishda ro'yxatlar qanday tuziladi.
- 3.Gipermatli murojaat tashkil etishda qaysi teg va parametrlardan foydalaniladi.

Mavzu 2. HTML da grafikani ishlatish. Atributlar va ularning argumentlari. HTML da jadvallarni tasvirlash vositasi.

Amaliy mashg'ulotlar rejasi

Fan: "Pedagogik Web dizayn".

O'quv soati: 2 s. (amaliy)

